

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMAJONOV BOXADIRJON SOLIJANOVICH**

**UMURTQA POG‘ONA BEL SOHASINING DEGENERATIV-DISTROFIK  
KASALLIKLARINING JARROHLIK USULIDA DAVOLASHNING  
PATOMORFOLOGIK ASOSLARI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya**

**14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya**

**tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

UO‘K: 616.711.6-018.3-002-089: 612.741.9: 612.815:616

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation**

**Mamajanov Buxadirjon Solijanovich**

Umurtqa pog‘ona bel sohasining degenerativ-distrofik kasalliklarining jarroxlik usulida davolashning patomorfologik asoslari ..... 3

**Мамажанов Бохадиржон Солижанович**

Патоморфологические основы хирургического лечения дегенеративно-дистрофических заболеваний поясничного отделов позвоночника ..... 37

**Mamazhanov Bokhadirzhon Solizhanovich**

Pathomorphological basis of surgical treatment of degenerative-dystrophic diseases of the lumbar spine..... 75

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 78

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMAJONOV BOXADIRJON SOLIJONOVICH**

**UMURTQA POG‘ONASI BEL SOHASINING DEGENERATIV-  
DISTROFIK KASALLIKLARINING JARROHLIK USULIDA  
DAVOLASHNING PATOMORFOLOGIK ASOSLARI**

**14.00.15 – Patologik anatomiya  
14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya**

**tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2. PhD /Tib860 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.fjsti.uz](http://www.fjsti.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchilar:**

**Isroilov Rajabboy**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Xudoyberdiev Kobil Tursunovich**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xasanova Muxarrama Almarejanovna**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Krutko Aleksandr Vladimirovich**  
tibbiyot fanlari doktori

**Xamraev Alisher Shaxobovich**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Tojikiston Respublikasi Abu Ali Ibn Sino nomidagi  
Tojikiston davlat tibbiyot universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 04/30.09.2020.tib.122.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2 uy. Tel.: (99895) 400-01-14, faks : (99873) 245-59-07)

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Turon ko‘chasi, 2 uy. Tel.: (99895) 400-01-14, faks : (99873) 245-59-07 e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Sidikov**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**M.D. Ashurova**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Sh.I.Ro‘ziev**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda umurtqa pogʻonasining degenerativ kasalliklari (UPDDK) sanoat rivojlangan mamlakatlarda nogironlik boʻyicha yetakchi oʻrinlardan birini egallaydi. Har yili 1 milliondan ortiq bemor UPDDK sababli tibbiy yordamga muhtoj boʻladi, ulardan 16 000 yaqin bemorlarda nogironlik tashxislanadi. Umurtqa pogʻonasining degenerativ-distروفik kasalliklari vertebrogenik mieloradikulopatiyalar etiologiyasida yetakchi oʻrinni egallaydi. Shu bilan birga, nevrologik kasalliklar tarkibida umurtqa pogʻonasining degenerativ shikastlanishining ulushi 52% ga, undan 81% umurtqa pogʻonasining bel-dumgʻaza qismida joylashgan. Mutaxassislar fikriga koʻra «...yil davomida katta yoshli aholi qatlamining 22-65%, umurtqa pogʻonasi degenerativ-distروفik kasalliklari (UPDDK) bilan kamida bitta epizodini boshdan kechiradi va bemorlarning 80-84 % kamida bir marta bel ogʻrigʻi shikoyatlari bilan tibbiy yordamga murojaat qiladi...»<sup>1</sup>. Epidemiologik maʼlumotlarga koʻra, soʻrovda qatnashganlarning 18,3% bel ogʻrigʻI, ayni paytda ularni bezovta qilayotgani haqida xabar berishgan, oʻtgan oy davomida 30,8% va oʻtgan yil davomida 38,9%. Baʼzi tadqiqotchilar kattalar populyatsiyasida UPDDK 100% ga toʻgʻri keladi deb hisoblashadi. Aholining global kasalligi boʻyicha tadqiqot natijalari (Global Burden of Disease Study) oxirgi oʻn yillar davomida UPDDK bemorlarda sogʻligʻini koʻp yoʻqotish yillar sonini koʻpaytirish boʻyicha yetakchilik qilsada 1990-2013 yilgacha boʻlgan davrda bu koʻrsatkich 57% ga oshdi. Shuni taʼkidlash kerakki, UPDDK koʻpincha 25 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan mehnatga layoqatli insonlarga taʼsir qiladi va degenerativ kasalliklarning namoyon boʻlishining ogʻirligi birinchi navbatda kasbiy faoliyat turiga bogʻliqdir. Davolashning katta xarajatlari va nogironlikning yuqori xavfi butun dunyo boʻylab jamiyatga ogʻir iqtisodiy yukni yuzaga keltiradi. Shu sababli, umurtqa pogʻonasi bel sohasi degenerativ-distروفik kasalliklarining klinik-anamnestik va patomorfologik asoslarini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyotning eng muhim muammoli masalalaridan biri hisoblanadi.

Jahonda umurtqa pogʻona bel sohasining degenerativ-distروفik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini takomillashtirish boʻyicha qator maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada bel umurtqasining degenerativ-distروفik kasalliklarining klinik-anamnestik va instrumental tahlilini, osteoxondroz, protruziya va churrada umurtqa toʻqima tuzilmalaridagi morfologik oʻzgarishlarni, Shmorl churrasida umurtqa pogʻonasidagi patomorfologik oʻzgarishlarni, spondilezda umurtqaning yumshoq va suyak-togʻay toʻqimali tarkibini baholash, hamda spondiloartrozda umurtqaning qirrali boʻgʻimi tarkibi va atrofidagi barcha toʻqima tuzilmalarida rivojlanadigan distrofiya, destruksiya va kalsinozga xos oʻzgarishlarni morfologik jihatdan baholashga qaratilgan tadqiqotlar alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Аслануков М. Н. и др. Результаты применения интраоперационного ультразвукового исследования в хирургии дегенеративных заболеваний поясничного отдела позвоночника //Нейрохирургия. – 2023. – Т. 25. – №. 3. – С. 59-68

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish tizimini jahon andozasi talablariga moslashtirish, jumladan, patologik holatlarda to'g'ri maqsadga yo'naltirilgan tadqiqotlarni o'tkazishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, umurtqa pog'ona bel sohasining degenerativ-distروفik kasalliklarining jarroxlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2018-yil 7-dekabrda PF-5590-son «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 12-noyabrda PF-6110-son «Birlamchi sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatiga prinsipial yangi mexanizmlarni joriy etish va sog'liqni saqlash tizimini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2019-yil 6-mayda PQ-4310-son «Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 12-noyabrda PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika bo'yicha ishlar samaradorligini yanada oshirish orqali aholi salomatligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2021-yil 25-mayda PQ-5124-son «Sog'liqni saqlashning kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 16-iyundagi PQ-283-son «Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatishni takomillashtirish to'g'risida»gi qarorlar, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Umurtqa pog'ona bel sohasining degenerativ-distروفik kasalliklarining jarroxlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini takomillashtirishga yo'naltirilgan qator ilmiy izlanishlarjahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan: University of Yale, University of California San Diego, University of

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi [www.washington.edu](http://www.washington.edu), [www.ku.edu](http://www.ku.edu), [www.atlantaoralpathology.com](http://www.atlantaoralpathology.com), [www.univr.it](http://www.univr.it), [www.unipv.it](http://www.unipv.it), [www.uksh.de](http://www.uksh.de), [www.keio.ac.jp](http://www.keio.ac.jp), [www.uoa.gr](http://www.uoa.gr), [www.ufsc.br](http://www.ufsc.br), [www.yonsei.ac.kr](http://www.yonsei.ac.kr), [www.sydney.edu.au](http://www.sydney.edu.au), [www.jazanu.edu.sa](http://www.jazanu.edu.sa), <https://www.cito-priorov.ru/>, <https://www.uztoiti.uz/>, <https://tma.uz/> saytlar asosida ishlab chiqilgan.

Johns Hopkins, University of California, University of Washington, University of Cornell (AQSh); Universität Ulm am Bezirkskrankenhaus Günzburg, University of Louisville (Olmoniya); University of Cambridge, Perinatal Institute, King's College London (Buyuk Britaniya); Federal University of Santa Catarina (Braziliya); University of Sydney (Avstraliya); Oswaldo Cruz Institute; University of Keimyung (Janubiy Koreya); University of Nanjing, Chongqing Medical University, University of Sichuan (Xitoy); University of Tohoku, University of Jikei (Yaponiya); University of Turin, University of Pisa (Italiya); University of Gachon (Koreya); Université de Paris (Fransiya); Irkutsk davlat tibbiyot universiteti (Rossiya); Russian Medical Academy of Postgraduate Education (Rossiya); Burdenko nomidagi neyroxirurgiya markazi (Rossiya); State Institution of Science «Research and Practical Center of Preventive and Clinical Medicine» State Administrative Department (Ukraina) Andijon davlat tibbiyot instituti (O'zbekiston) da olib borilmoqda.

Umurtqa pog'onasi bel sohasining degenerativ-distروفik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini ishlab chiqish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar borasida qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: umurtqaning bel sohasi degeneratsiyasi keltirib chiqargan surunkali og'riqni davolashda suyak iligining autologik mezenximal stvulli hujayralari samaradorligi baholangan (Tri-State Spine Care Institute (AQSh)); rentgenografiyada kanalning degenerativ stenozi oqibatida orqa miyaning bo'yin sohasi kompressiyasini tashxislash uchun chuqur baholash algoritmi isbotlangan (Osaka Metropolitan University (Yaponiya)); allogen mezenximal ildiz hujayralari bilan degenerativ churra kasalliklarini davolash samaradorligi isbotlangan (Universitario de Valladolid (Ispaniya)); beldagi surunkali og'riqni davolash uchun suyak ichi ablyatsiya bazasi va vertebral nerv bo'yicha prospektiv randomirlangan ko'p markazli tadqiqot samaradorligi isbotlangan (University of California (AQSh)); umurtqa pog'onasining bel sohasi churrasini disketomiyasida minimal invaziyaning zamonaviy konsepsiyasi, jarroxlik amaliyoti va natijalari isbotlangan (Tohoku University (Yaponiya)); bel sohasining degenerativ kasalliklarini davolash uchun orqa lateral spondilodez va faset bo'g'imlari o'zgargan spondilodezini qiyoslash tartibi isbotlangan (Chinese Academy of Medical Sciences (Xitoy)); bel sohasi degenerativ xastaliklarida teri orqali transforoaminal endoskopik oraliqlararo spondilodezning davolash tartibi asoslangan (University of Keimyung (Janubiy Koreya)); umurtqaning degenerativ kasalliklarida orqa dinamik neytralizatsiya va gibrid muvozanatning uzoq klinik va rentgenologik natijalari isbotlangan (Orthopaedic Institute (Italiya)); degenerativ-distروفik kasalliklarida operatsiyadan keyingi umurtqa pog'onasi xastaliklarini stabilometrik reabilitatsion davolash tartibini o'rni isbotlangan (Siberian State Medical University (Rossiya)); degenerativ-distروفik aralashuvlarni o'tkazgan, umurtqa pog'onasi kasalliklariga chalingan bemorlarda operatsiyadan keyingi stabilometrik shug'ullanish tartibi samaradorligi baholangan (Siberian State Medical University (Rossiya)) o'rta va katta yoshdagi patsientlarda umurtqa pog'onasining bel sohasida yuzaga kelgan faset sindromini davolashda fasetoplastikaning klinik samaradorligi tahlil qilingan (Irkutsk tibbiyot Universiteti, Rossiya); umurtqa pog'onasi bel sohasining

degenerativ-distروفik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslari takomillashtirilgan (Andijon davlat tibbiyot instituti (O‘zbekiston)).

Dunyoda umurtqa pog‘ona bel sohasining degenerativ-distروفik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini takomillashtirish qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo‘g‘imi tarkibi va atrofidagi barcha to‘qima tuzilmalarida rivojlanadigan distrofiya, destruksiya va kalsinozga xos o‘zgarishlarni morfologik jihatdan asoslash; umurtqa pog‘onasining bel sohasi degenerativ-distروفik kasalliklarining barcha shakllarida shikastlanadigan to‘qima tuzilmalarida yuz beradigan o‘zgarishlarning morfologik mezonlarini ishlab chiqish; umurtqa pog‘ona bel sohasi degenerativ-distروفik kasalliklarini davolashda morfologik tekshiruv natijalarini inobatga olib, foydalaniladigan jarrohlik usullarini qo‘llashga bo‘lgan ko‘rsatmalarni takomillashtirishdan iborat.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Umurtqa pog‘onasining degenerativ-distروفik kasalliklari umurtqaning harakat segmentar elementlari tizimida tarkibiy va funksional o‘zgarishlar bilan namoyon bo‘ladi. Jarayonga umurtqalararo disklar, plastinalar, faset bo‘g‘imlari, rivojlangan bosqichlarda esa orqa miya kanali va orqa miya jalb qilinishi mumkin. MKB ga muvofiq tibbiyotda umurtqa pog‘onasining degenerativ-distروفik kasalliklari (UPDDK) surunkali og‘riqlarning sababchisi bo‘lgan, umurtqa pog‘onasini asta-sekin yemirilishiga olib keladigan suyak-tog‘ay to‘qimasi patologiyasining asosiy guruhini tashkil qiladi. Ko‘plab dalillar nafaqat umurtqa pog‘onasining degenerativ–distروفik kasalliklarining yuqori darajada uchrashi, balki ushbu kasalliklarning darajasini kamaytirish tendensiyasining yo‘qligini ham ko‘rsatgan. Bu umurtqalararo diskdagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlarning rivojlanishi, umurtqa pog‘onasining bel segmentida stenozning shakllanishiga olib keladigan segmental beqarorlik bilan bog‘liq (Lin S.I., 2006; Wu W.J., 2012). UHSning barcha elementlariga to‘liq zarar etkazish bosqichida ko‘pincha ma‘lum kasalliklarga tegishli ekanligini aniqlash qiyin, amaliy shifokor nuqtai nazaridan, qaysi tarkibiy qismda o‘zgarishlar birlamchi bo‘lganligi va keyinchalik kasallikning rivojlanishi jarayonida yuzaga kelganligi unchalik muhim emas. Ayni paytda ma‘lum bir bemorning klinik ko‘rinishini aniqlaydigan tarkibiy va funksional o‘zgarishlarni aniqlash muhimroqdir. Agar bemorda hech qanday nevrologik alomatlersiz spondiloartralgıya simptomlari majmuasi bo‘lsa, ko‘plab shifokorlar spondiloartrozning birlamchi yoki osteoxondroz yoki osteoxondropatiya tufayli kelib chiqqanligini aniqlash har doim ham zarur deb hisoblamaydilar. Osteoxondroz - umurtqa pog‘onasining degenerativ shikastlanishining eng keng tarqalgan shaklidir. Kasallikning dastlabki bosqichida pulpoz yadroda o‘zgarishlar rivojlanadi. Tuzilishi elastikligini, suvni yo‘qotadi, bu gıalin plastinkalarini va umurtqali jismlarning qo‘shni qismlariga shikast etkazadi. Degeneratsiya rivojlanib borishi bilan yoriqlar, plastinka yorilishilari (Shmorl tugunlari) va fibroz halqa (disklarning protruziyasi va churrasi) paydo bo‘ladi. Boshqa tarkibiy qismlar: umurtqa tanalari, bog‘lamlar, bo‘g‘inlar vaqt o‘tishi mobaynida jarayonga

osteoskleroz rivojlanishi bilan kiradi. Bo'g'im yuzalar siljiydi, asta-sekin faset bo'g'imlarining lat yeyishi paydo bo'ladi (bel-qovurg'a artrozi). Umurtqa tanalaridagi distrofik o'zgarishlar va kasallikning terminal bosqichida keyingi buzilish, umurtqa pog'onasining egriligini, kanal stenozini taqlid qiladi. UHSning oldinga chiqishi oldingi bo'ylama bog'larning taranglashishi bilan birga keladi. Chiqib ketgan disk darajasida bu bog'lam cho'zilib, yoysimon shaklga ega bo'ladi. Spondiloartroz umurtqa pog'onasining degenerativ-distrofik patologiyasining 20% dorsalgianing asosiy sababi bo'lib, 65 yoshdan oshgan bemorlarni 65% da kuzatiladi [4]. Osteoxondroz va deformatsiyalovchi spondilyoz bir xil patogenetik omillar, birinchi navbatda UHSning orqa qismlarining jismoniy ortiqcha yuklanishi bilan qo'zg'atiladi; bunday holda, bunday ortiqcha yukning sababi umurtqa pog'onasi statikasining buzilishi bo'lishi mumkin. Deformatsiyalovchi spondiloartroz, osteoxondroz bilan birga kechadi va ko'pincha uning rivojlanishining dastlabki bosqichida va ba'zida diskopatiyaning klinik ko'rinishlaridan ancha oldinda o'zini namoyon qiladi. Spondilyoz, osteoxondroz kabi, ko'pincha UHSning bo'yin yoki bel darajasida rivojlanadi. Yoysimon bo'g'imlarning artrozi keng tarqalgan osteoartritning namoyon bo'lishidan biri bo'lishi mumkin. Umurtqa pog'onasidagi degenerativ-distrofik jarayonda yoysimon bo'g'imda yuzaga keladigan biokimyoviy o'zgarishlar osteoxondroz tufayli UPD dagi shunga o'xshash o'zgarishlar bilan juda ko'p o'xshashliklarga ega bo'ladi. Spondiloartrozning dastlabki bosqichida tog'ay qalinlashadi va keyinchalik uning ingichkalashi sodir bo'ladi, asta-sekin butun bo'g'im, shu jumladan sinovial qobig', kapsula, bog'lamlar, shuningdek yaqin atrofdagi mushaklar jarayonga jalb qilinadi.

O'zbekistonda umurtqa pog'onasi bel qismini degenerativ-destruktiv kasalliklarini borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (Mamatxanova Ch.B. 2018., Xikmatova, N. A. 2010., Yuldashev R. M. 2018 ), biroq umurtqa pog'onasi bel sohasining degenerativ-distrofik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini baholash yetarlicha o'rganilmagan.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, bel umurtqasining degenerativ-distrofik kasalliklarining klinik-anamnestik va instrumental tahlilini amalga oshirish natijasida osteoxondroz, protruziya va churrada umurtqa to'qima tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlar baholanmagan. Shmorl churrasida umurtqa pog'onasidagi patomorfologik o'zgarishlar, spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo'g'imi tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalarida rivojlanadigan distrofiya, destruksiya va kalsinozga xos o'zgarishlar morfologik jihatdan baholanmaganligi natijasida umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarining barcha shakllarida shikastlanadigan to'qima tuzilmalarida yuz beradigan o'zgarishlarning morfologik mezonlari ishlab chiqish umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarini jarrohlik usulida davolashning patomorfologik o'zgarishlarini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar zarurligini taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy tadqiqot ishlari

rejasiga muvofiq «Inson va tajriba hayvonlar organizmi hayot faoliyati ko'rsatkichlarining har xil patologik omillar ta'siridagi funktsional, metabolik va struktur o'zgarishlarning o'ziga xosligi va ularni korrektsiyalash yo'llari hamda ekspert baholashning yangi imkoniyatlari» (2019-2023 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umurtqa pog'onasi bel sohasidagi degenerativ-distrofik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik xususiyatlarni baholashni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bel umurtqasining degenerativ-distrofik kasalliklarining klinik-anamnestik va instrumental tahlilini o'tkazish;

bel umurtqasi osteoxondrozi, protruziya va churrada umurtqa to'qima tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarni baholash;

Shmorl churrasida umurtqa pog'onasidagi patomorfologik va morfometrik o'zgarishlarni o'rganish;

bel umurtqasi spondiloartrozida umurtqa suyagi qirrali bo'g'imi tarkibi va atrofidagi yumshoq to'qima tuzilmalarida rivojlanadigan distrofiya, destruksiya va kalsinozga xos o'zgarishlarni patomorfologik jihatdan baholash;

umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarining barcha shakllarida shikastlanadigan to'qima tuzilmalaridagi o'zgarishlarni morfologik mezonlarini ishlab chiqish;

umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik o'zgarishlarini morfologik mezonlar asosida, jarrohlik usullarini qo'llashga bo'lgan ko'rsatmalarni takomillashtirish;

umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarini davolashda takomillashtirilgan usullar samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining neyrojarrohlik bo'limida 2019 yildan 2023 yilgacha bo'lgan davrda bel umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklari bilan kasallangan, hamda jarrohlik yo'li bilan davolangan 140 nafar bemorning klinik material, jarrohlik amaliyotida olingan umurtqa pog'ona to'qima bo'laklari klinik-morfologik usullarda tekshirish uchun olingan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida umurtqa pog'onasi bel sohasining degenerativ-distrofik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashda bel umurtqasining degenerativ-distrofik kasalliklarining klinik-anamnestik va instrumental tahlilini o'tkazishda osteoxondroz, protruziya va churrada umurtqa to'qima tuzilmalaridagi morfologik o'zgarishlarni, Shmorl churrasida umurtqa pog'onasidagi o'zgarishlar, spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo'g'imi tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalarida rivojlanadigan distrofiya, destruksiya va kalsinozga xos o'zgarishlarni morfologik jihatdan baholash materiallari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda umurtqa pog'ona bel sohasining degenerativ-distrofik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini baholashda klinik-anamnestik, morfologik, klinik, instrumental va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarining klinik-anamnestik va instrumental ma'lumotlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

umurtqa pog'ona bel sohasi osteoxondroz, protruziya va churrasining barcha to'qima tuzilmalarida, ya'ni tog'ayli disk, fibroz parda, umurtqa suyagi, sariq bog'lam va chuqur skelet mushaklarlarning har biriga xos bo'lib rivojlangan patomorfologik o'zgarishlarning patogenetik va morfogenetik xususiyatlari asoslangan;

umurtqa g'alvirak suyakni tog'ayli disk tomondan qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dag'al oqsilga aylanishi, g'alvirak suyakning distrofiya va destruksiyaga uchrashi, natijasida tog'ayli disk to'qima tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishidan Shmorl churrasi shakllanishi isbotlangan;

spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo'g'imi tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalar, jumladan bo'g'im tog'ayi, tog'ay osti suyak, boylamlari, fibroz pardasi va atrofidagi mushaklari distrofiya, destruksiya va kalsinozga uchraganligi tasdiqlandi, umurtqa suyagi dirildoq moddasi tarkibidagi tolali tuzilmalarning morfometrik jihatlari tartibsiz tolali tuzilmalarning nazorat guruhiga nisbatan 3,2-4,2 barobarga oshganligi aniqlangan;

Shmorl churrada tog'ayli diskning g'alvirak suyakka botib kirishi, g'alvirak suyak to'qima tuzilmalarining destruksiyasi, unda qon quyilish, fibrozli displaziya va kalsinoz rivojlanishi, spondilez kasalligida osteofitlar paydo bo'lishi, ularning fibroz parda va tog'ayli diskka botib kirishi va ularda destruksiya, ohaklanish va xondromatoz paydo bo'lishi, spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo'g'imi tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalarda degenerativ o'zgarishlar rivojlanishi asoslangan;

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarining klinik-anamnestik va instrumental ma'lumotlarining o'ziga xos xususiyatlari oydinlashtirilgan;

degenerativ-distrofik kasalliklarida umurtqa pog'onasi barcha sohalaridagi o'zgarishlarni klinik-laborator-instrumental natijalar asosida korreksiyalangan davolash tartibini amalga oshirish zarurligi isbotlangan;

umurtqa pog'ona bel sohasi osteoxondroz, protruziya va churrasining barcha to'qima tuzilmalarida, ya'ni tog'ayli disk, fibroz parda, umurtqa suyagi, sariq bog'lam va chuqur skelet mushaklarlarning har biriga xos bo'lib rivojlangan patomorfologik o'zgarishlarning o'ziga xos kompleksi ishlab chiqilgan;

Shmorl churrasi shakllanishi umurtqa g'alvirak suyakni tog'ayli disk tomondan qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dag'al oqsilga aylanishi, g'alvirak suyakning distrofiya va destruksiyaga uchrashi natijasida tog'ayli disk to'qima tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishi kabi algoritmi ishlab chiqilgan;

spondilez kasalligi morfogenezi, ya'ni umurtqa suyakda betartib tuzilishli osteofitlar paydo bo'lishi, ularning fibroz pardaga botib kirishi va uni destruksiyalashi, tog'ayli diskning dirildoq yadrosida destruksiya, ohaklanish va

xondromatoz kabi degenerativ o'zgarishlar rivojlanganligi bilan davom etishi tasdiqlangan;

spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo'g'im shikastlanishi, morfologik jihatdan uning tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalari, jumladan bo'g'im tog'ayi, tog'ayosti suyak, boylamlari, fibroz pardasi va atrofidagi mushaklari distrofiya, destruksiya va kalsinozga uchrashligi morfogenetik mexanizm sifatida ishlab chiqilgan;

umurtqa pog'ona bel sohasining barcha degenerativ-distrofik kasalliklarga xos morfologik mezonlar ishlab chiqilgan.

distrofik-degenerativ kasalliklarda umurtqa pog'ona qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan o'zgarishlarning morfogenezi, patomorfologiyasini va ortopedik xususiyatlarini inobatga olib, kaminvaziv darajadagi jarrohlik amaliyoti ishlab chiqilib, travmatologiya sohasida qo'llanilishi tavsiya etilgan;

umurtqa pog'ona disk churrasi, spondilezi va spondiloartroziga bog'liq qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar bemorlarning yoshi, jinsiga bog'liqligi, jarrohlik amaliyotidan keyingi kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlarni profilaktikasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tekshiruvlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, tekshirilgan bemorlar sonining yetarliligi, tadqiqotda qo'llanilgan zamonaviy o'zaro bir-birini to'ldiruvchi klinik, morfologik, morfometrik, immunogistokimyoviy, instrumental va statistik tadqiqot usullar yordamida ishlov berilganligi, shuningdek, umurtqa pog'ona bel sohasining degenerativ-distrofik kasalliklarining jarroxlik usulida davolashning patomorfologik asoslarini takomillashtirishda halqaro, hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umurtqa pog'onasi bel qismining degenerativ-distrofik kasalliklari bo'lgan mijozlarga ixtisoslashgan jarrohlik amaliyotini belgilash bo'yicha tibbiy texnologiyalar ishlab chiqarilgan; ularning patogenetik asosi va differensiallangan optimal usuli taklif qilingan haqidagi ma'lumotlar kengaytirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umurtqa pog'onasi bel qismining degenerativ-distrofik kasalliklari bo'lgan bemorlarga statsionar jarrohlik yordamini tashkil qilish tizimida davo-diaagnostik algoritmi yaratilgan; jarrohlik amaliyoti standartlashtirilgan, uning asosida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam modeli yaratilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Andijon davlat tibbiyot instituti muvofiqlashtiruvchi ekspert kengashining 2024- yil 5 -yanvardagi 06/29-sonli xulosasiga ko'ra (ilmiy yangilikni boshqa sog'liqni saqlash muassasalariga joriy etish bo'yicha Andijon davlat tibbiyot institutining 2024- yil 5- yanvardagi 8n-z/63-sonli xati Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etilgan):

**birinchi ilmiy yangilik:** umurtqa pog'ona bel sohasi osteoxondroz, protruziya va churrasining barcha to'qima tuzilmalarida, ya'ni tog'ayli disk, fibroz parda, umurtqa suyagi, sariq bog'lam va chuqur skelet mushaklarining har biriga

xos bo'lib, rivojlangan patomorfologik o'zgarishlarning patogenetik va morfogenetik xususiyatlari asoslanganligi Farg'ona viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (02.10.2023 y.; №25), Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (04.10.2023 y.; №23/1) Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (06.10.2023 y.; №11), hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali bo'yicha (03.01.2024 y.; №31) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tavsiya etilgan algoritm va uslublarning davolash amaliyotiga joriy etilishi natijasida umurtqa pog'ona bel sohasi osteoxondroz, protruziya va churrasining barcha to'qima tuzilmalarida, ya'ni tog'ayli disk, fibroz parda, umurtqa suyagi, sariq bog'lam va chuqur skelet mushaklarlarning har biriga xos bo'lgan patomorfologik o'zgarishlarning patogenetik va morfogenetik xususiyatlarini inobatga olgan tartibda umurtqa pog'onasi bel sohasida yuzaga keladigan degenerativ kasalliklarining samarali tashxislash va o'ziga xos bo'lgan davolash tartibini tadbiiq etilishi natijasida mijozlarning ahvolini yaxshilash orqali nogironlikning oldini olish imkonini beradi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tavsiya etilgan klinik-anamnestik va patomorfologik tashxislash, davolash tartibi qo'llanilganda qo'shimcha tekshirishlar o'tkazilishi talab etilmasligi natijasida tadqiqotga talab etiladigan davolash vaqti 2-3 kunga qisqarishi hisobiga iqtisod qilishga erishilgan (an'anaviy tashxis va davolash usulining o'rtacha narxi 1 nafar bemor uchun 2250000 so'mni tashkil qilsa, tavsiya etilgan usulning narxi 1300000 so'm). **Xulosa:** tavsiya etilgan tashxislash va davolash usulidan foydalangan holda muolajalarni o'tkazish vaqtini 1-1,5 barobar qisqartirib, 1 nafar bemor hisobiga byudjet mablag'larini 950000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan;

**ikkinchi ilmiy yangilik:** umurtqa g'alvirak suyakni tog'ayli disk tomondan qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dag'al oqsilga aylanishi, g'alvirak suyakning distrofiya va destruksiyaga uchrashi natijasida tog'ayli disk to'qima tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishidan Shmorl churrasi shakllanishi isbotlanganligi Farg'ona viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (02.10.2023 y.; №25), Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (04.10.2023 y.; №23/1) Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (06.10.2023 y.; №11) hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali bo'yicha (03.01.2024 y.; №31) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** Shmorl churrasi shakllanishi umurtqa g'alvirak suyakni tog'ayli disk tomondan qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dag'al oqsilga aylanishi, g'alvirak suyakning distrofiya va destruksiyaga uchrashi natijasida tog'ayli disk to'qima tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishi kabi algoritmi ishlab chiqilgan va uning natijasida bemorlarning bel sohasidagi churrasini davolash natijasida nogironlikning oldini olish orqali bemorlarning ishlash qobiliyatini tiklash samaradorligi oshirishga xizmat qiladi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tavsiya etilgan umurtqa pog'onasi bel sohasi churrasini aniqlash bo'yicha tashxislash usuli va davolash taktikasini tanlash klinik-patomorfologik natijalarini hisobga olgan holda umurtqa g'alvirak

suyakni tog'ayli disk tomondan qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dag'al oqsilga aylanishi, g'alvirak suyakning distrofiya va destruksiya uchrasida natijasida tog'ayli disk to'qima tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishidan Shmorl churrasini tashxislashda (UASH, travmatolog ko'rigi, MRT, rentgen) bilan jarrohlik amaliyotidagi harajatlarni, tashxisiz davolanishda 75-85% gacha tejalishiga olib keladi. **Xulosa:** umurtqa g'alvirak suyakni tog'ayli disk tomondan qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dag'al oqsilga aylanishi, g'alvirak suyakning distrofiya va destruksiya uchrasida natijasida tog'ayli disk to'qima tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishidan Shmorl churrasini davolash natijasida 1 nafar bemor hisobiga byudjet mablag'larini 1350000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan;

**uchinchi ilmiy yangilik:** umurtqa pog'ona bel sohasining barcha degenerativ-distrofik kasalliklarga xos morfologik mezonlar ishlab chiqildi, jumladan: Shmorl churrada tog'ayli diskning g'alvirak suyakka botib kirishi, g'alvirak suyak to'qima tuzilmalarining destruksiya, unda qon quyilish, fibrozli displaziya va kalsinoz rivojlanishi, spondilez kasalligida osteofitlar paydo bo'lishi, ularning fibroz parda va tog'ayli diskka botib kirishi va ularda destruksiya, ohaklanish va xondromatoz paydo bo'lishi, spondiloartrozda umurtqaning qirrallari bo'g'imi tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalarda degenerativ o'zgarishlar rivojlanishi asoslangani Farg'ona viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (02.10.2023 y.; №25), Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (04.10.2023 y.; №23/1) Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (06.10.2023 y.; №11) hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali bo'yicha (03.01.2024 y.; №31) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** taklif etilgan tashxislash tartibi umurtqa pog'onasi bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklaridan spondilez kasalligi morfogenezi, ya'ni umurtqa suyakda tartibsiz tuzilishli osteofitlar paydo bo'lishi, ularning fibroz pardaga botib kirishi va uni destruksiyalashi, tog'ayli diskning dirildoq yadrosida destruksiya, ohaklanish va xondromatoz kabi degenerativ o'zgarishlar rivojlanganligi bilan davom etishi tasdiqlangan va uni samarali tashxislash va davolashning samarali algoritmi ishlab chiqilgan. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tavsiya etilgan umurtqa degenerativ-distrofik kasalligini aniqlash bo'yicha tashxislash va davolash taktikasini tanlash klinik va patomorfologik natijalarini hisobga olgan holda iqtisodiy samaradorlikni yuqoriligi 50-65% gacha mablag'lar tejalishi bilan izohlanadi. **Xulosa:** bunday umurtqa pog'onasi bel sohasidagi klinik morfologik xususiyatlarini to'liq o'rganib borilishi, travmatolog va neyrojarrohlarning uchun kasallik kelib chiqish sabablarini 100% aniqlash, to'g'ri tahlil qilish va davolash algoritmini to'g'ri tanlanishiga imkon beradi va bemorlarning kasbiy nogironligining oldini olish orqali ishlash qobiliyatini tiklashga sharoit yaratilganligi bilan izohlanadi;

**to'rtinchi ilmiy yangilik:** distrofik-degenerativ kasalliklarda umurtqa pog'onasi qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan o'zgarishlarning morfogenezi, patomorfologiyasini va ortopedik xususiyatlarini inobatga olib, kaminvaziv darajadagi jarrohlik amaliyoti ishlab chiqilganligi Farg'ona viloyati

patologik anatomiya byurosi bo'yicha (02.10.2023 y.; №25), Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (04.10.2023 y.; №23/1) Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (06.10.2023 y.; №11) hamda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali bo'yicha (03.01.2024 y.; №31) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** umurtqa pog'onasi bel sohasining barcha degenerativ-distrofik kasalliklarda umurtqa pog'onasi qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan o'zgarishlarning morfogenezi, patomorfologiyasini va ortopedik xususiyatlarini inobatga olib, kaminvaziv darajadagi jarrohlik amaliyoti ishlab chiqilib, travmatologiya sohasida qo'llanilishi tavsiya etilishi mijozlarning bel sohasidagi churrasini davolash natijasida nogironlikni oldini olish orqali mijozlarning jismoniy ishlash qobiliyatini tiklash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tavsiya etilgan umurtqa pog'onasi bel sohasi churrasini aniqlash bo'yicha tashxislash usuli va davolash taktikasini tanlash davolash vaqti 2-3 kunga qisqarishi hisobiga iqtisod qilishga erishilgan (an'anaviy tashxis va davolash usulining o'rtacha narxi 1 nafar bemor uchun 2250000 so'mni tashkil qilsa, tavsiya etilgan usulning narxi 1300000 so'm). **Xulosa:** tavsiya etilgan tashxislash va davolash usulidan foydalangan holda muolajalarni o'tkazish vaqtini 1-1,5 barobar qisqartirib, 1 nafar bemor hisobiga byudjet mablag'larini 950000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

**beshinchi ilmiy yangilik:** umurtqa pog'onasi disk churrasi, spondilezi va spondiloartroziga bog'liq qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar bemorlarning yoshi, jinsiga qarab o'rganilib va yo'ldosh kasalliklari inobatga olinib, ortopedik tartib va dori vositalarini asosli tavsiya qilish, jarrohlikdan so'ng kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar profilaktikasi ishlab chiqilganligi Farg'ona viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (02.10.2023 y.; №25), Andijon viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (04.10.2023 y.; №23/1) Namangan viloyati patologik anatomiya byurosi bo'yicha (06.10.2023 y.; №11) hamda Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali bo'yicha (03.01.2024 y.; №31) buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan. **Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** umurtqa pog'onasi disk churrasi, spondilezi va spondiloartroziga bog'liq qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar bemorlarning yoshi, jinsiga bog'liqligi, jarrohlik amaliyotidan keyingi kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar profilaktikasi ishlab chiqilgan, ushbu proflaktik tavsiyaning travmatologiya sohasida qo'llanilishini tavsiya etilishi bemorlarning bel sohasidagi churrasini davolash natijasida nogironlikni oldini olish, jismoniy qobiliyatini tiklashga xizmat qiladi. **Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:** tavsiya etilgan umurtqa pog'onasi bel sohasi churrasini aniqlash bo'yicha tashxislash usuli va davolash taktikasini tanlash davolash vaqti 2-3 qisqarishi hisobiga iqtisod qilishga erishilgan (an'anaviy tashxis va davolash usulining o'rtacha narxi 1 nafar bemor uchun 2250000 so'mni tashkil qilsa, tavsiya etilgan usulning narxi 1300000 so'm). **Xulosa:** tavsiya etilgan tashxislash va davolash usulidan foydalangan holda muolajalarni o'tkazish vaqtini 1-1,5 barobar

qisqartirib, 1 nafar bemor hisobiga budget mablag'larini 950000 so'mga iqtisod qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 35 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 145 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularni ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishlarning aprobatsiyasi natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Umurtqa pog'onasi degenerativ-distrofik kasalliklarini patomorfologik tashxislash va zamonaviy talqini**» deb nomlangan birinchi bobida umurtqa pog'onasi bel sohasining degenerativ-distrofik kasalliklarining jarrohlik usulida davolashning patomorfologik xususiyatlarni baholashda xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlar mushohadasi keltirilgan. Ushbu bobda umurtqa pog'onasining turli kasalliklarning kelish chiqishi, etiologiyasi, patogenezi, davolashning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarining patomorfologiyasi borasida zarur bo'lgan zamonaviy adabiyotlarning manbalari yoritilgan va tahlil qilingan. Umurtqa pog'onasi distrofik degenerativ kasalliklarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar va ular asosida tavsiya etilgan tashxislash va davolashni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslashda mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning «**Umurtqa pog'ona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarini patomorfologik o'zgarishlari asosida takomillashtirilgan jarrohlik usulida davolashni baholash materiali va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ob'yekti, predmeti va usullari batafsil yoritilgan bo'lib, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining neyrojarrohlik bo'limida 2019 yildan 2022 yilgacha bo'lgan davrda bel umurtqalari degenerativ distrofik kasalliklari bilan kasallangan, hamda jarrohlik yo'li bilan davolangan 140 nafar bemorning klinik materiali, jarrohlik amaliyoti vaqtida olingan umurtqaning to'qima bo'laklari klinik-morfologik usullarda tekshirish uchun olingan (1-

jadvalga qarang)

Oxirgi vaqtlarda umurtqa pogʻonasini degenerativ kasallanishi oqibatida rivojlanadigan patomorfologik jarayonlardagi oʻzgarishlar oqibatida yuz beradigan asoratlarni tashxislashni takomillashtirish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

### 1-jadval

#### Umurtqa pogʻona bel sohasi degenerativ- distrofik kasalliklar turlari

№	Kasallik shakllari	Bemorlar soni
1	Osteoxondroz kasalligini asoratlari (protruziya, churra)	46
2	Shmorl churrasi	26
3	Spondilez	33
4	Spondiloartroz	35
	Jami	140

**Umurtqa pogʻona bel sohasi degenerativ kasalliklarida klinik belgilarning uchrash darajasi.** Umurtqa pogʻona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarning har biriga xos klinik belgilarining uchrash darajasini oʻrganib chiqilganda, quyidagicha maʼlumot olindi (2.1-rasm). Grafikda koʻrsatilgan klinik belgilar quyidagicha tasvirga ega boʻldi: 1) osteofitlar shakllanishi, 2) osteoporoz, 3) ogʻriq paydo boʻlishi, 4) diskning boʻrtib chiqishi, 5) Falajlanish, 6) mushaklar gipertrofiyasi, 7) nervning karaxtligi, 8) dumgʻaza sohadagi ogʻriq, 9) bel sohadagi ogʻriq. Grafikda ustunlar koʻrinishida maʼlum qilinishicha bel churrasi kasalligida nervning karaxtligi va ogʻriq paydo boʻlishi ustun turganligi kuzatiladi. Shmorl churrasida bel sohasidagi ogʻriq, spondilez kasalligida bel sohasida ogʻriq, dumgʻaza sohasida ogʻriq, spondiloartrozda deyarlik barcha klinik belgilar ustun turishi kuzatiladi.


Bel sohasini degenerativ-distrofik kasalliklar bilan xastalangan bemorlarni klinik va instrumental tekshiruv usullari natijasida bel umurtqalari osteoxondrozida, yaʼni umurtqalararo togʻay va suyak tizimining degenerativ va distrofik oʻzgarishlarida, aksariyat bemorlarning shikoyatlari bel sohasida, dumgʻazada, harakatda kuchayuvchi toʻmtoq yoki oʻtkir ogʻriqlar bilan izohlanadi, baʼzida bemorlarning sezuvchanligi va kompressiyaga uchragan ildizlar innervatsiya zonasida karaxtlik va mushaklar gipotrofiyasi, hamda falajlik belgilari va tos aʼzolari faoliyatining buzilishi kabi klinik belgilar bilan namoyon boʻladi.

Qaytalanuvchi simptomlar majmui lyumbago, lyumboishalgiya, u yoki bu koʻrinishdagi ildizli simptomlarning 1-3 oy mobaynida qaytalanish tezligi bilan bogʻliq. Bu belgilarning qaytalanishi mavsumiy xarakterga ega boʻlib, koʻpincha yilning sovuq oylarida kuzatiladi. Kasallikning kuchayish davri davomiyligi 1-2 haftani tashkil qiladi.

Shmorl churrasi odatda umurtqa pogʻonasining koʻkrak va bel qismlarida joylashadi. Klinik jihatdan asoratlanishi kam uchraydi va falajlanish bilan

namoyon bo'lishi mumkin. Shmorl churrasining joylanishi va paydo bo'lgan tugunlar soniga qarab bir necha turi farqlanadi.

Churra joylashuvi asosan pastki ko'krak va bel sohasi umurtqalarida (T8 va T12 oralig'ida) sodir bo'ladi. Bo'yin sohasida bu kasallikning rivojlanishi odatda kuzatilmaydi. Bel sohasida kuzatiladigan degenerativ-distrofik kasalliklarni instrumental tekshiruvlariga quyidagilardan foydalaniladi: rentgen, raqamli rentgen, kompyuter tomografiyasi va magnit-rezonans tomografiya. Bel sohasi L3-L4, L4-L5, L5-S<sub>1</sub> umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklarining biri osteoxondroz kasalligida, olingan spondilogrammani o'rganish jarayonida osteoxondrozga xos belgilar aniqlandi. Bo'g'im o'simtalari gipertrofiyasi hisobiga degenerativ-distrofik jarayon natijasida umurtqalararo teshik shakli o'zgarishi mumkin. Uning vertikal o'lchami o'zgarmaydi, gorizontal o'lchami esa bir oz torayadi. Umurtqa tanalarining deyarli hamma guruhlarida osteofitlarning o'sishi va spondiloartroz jarayoni kuzatiladi (2.2-rasmga qarang).




**1-rasm. Bel umurtqalardagi degenerativ jarayonga xos rentgenologik belgilar**

Bel umurtqalari osteoxondroz kasalligini asoratidan biri: **umurtqa protruziyasida** rentgen ko'rinishi quyidagicha tasvirlanadi: antalgik skolioz kuzatilmaydi, umurtqa tanasini oralig'i saqlanadi. **Umurtqalararo disk churrasini oddiy rentgenografiyasida** kasallikni faqat bevosita belgilar orqali aniqlash mumkindir: bo'g'im yorig'ini xanjar shaklida joylashishi va qo'shni segmentlarning umurtqalarining 3-4 mmga yuqoriga siljishidir; rentgen tasvirda umurtqaning anatomik tuzilishini aniqlash mushkuldir, chunki yumshoq to'qima orqali rentgen nurlari soyalanishlarsiz o'tadi. **Shmorl churrasini** rentgen tavsifi-rentgenda Shmorl churra umurtqalararo diskining markaziy qismi bo'rtib chiqishi tufayli aniqlanadi. Rentgenogrammada umurtqa pog'onasini bir segmentini yuqori va pastki berkituvchi plastinkalarini botib qolishi aniqlanadi.

**§2.3. Bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklari bilan xastalangan bemorlarni magnit-rezonansli-tomografik tekshiruv natijalari**

Zamonaviy tekshirish usullarining tibbiyot amaliyotiga tatbiq qilinishi tashxislash darajasini va samarali davolash taktikasini tanlashda sezilarli tarzda koʻtardi. MRT tekshirish usuli yuqori tashxislash imkoniyatiga ega boʻlib, bemorlar uchun invaziv xarakterga egadir. Umurtqa pogʻonasining qaysi qismi tekshirilishiga qaramay, MRT tekshiruvda umurtqa kanali hosilasini toʻlaqonli oʻrganish imkonini yaratadi. Tekshiruvni frontal, sagital va aksial kesimlarda, kontrast moddalarsiz olib borish mumkin.

Apparat monitori va plyonkada hosil boʻlgan tasvir MRT tekshiruvda magnit maydonining kuchiga, ketma-ket qabul qilingan impulslar, toʻqimalardagi protonlar zichligi va relaksatsiya vaqtiga bogʻliq (T1-T2 tartibida). Bel umurtqalari osteoxondrozi bilan kuzatuvimizda boʻlgan 140 nafar bemorning barchasi MRT tekshiruvdan oʻtdi. Ular Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasida «Siemens» firmasining «Magnetom» tomografiyasida tekshirildi.



**2.-rasm. Bel sohasidagi degenerativ-distrofik kasalliklarni operativ davolash turlari va bajarish texnikasi quyidagi rasmda ifodalangan.**

Oʻtkazilgan jarrohlik amaliyotlari turlari: a) arkotomiya + diskektomiya + foraminotomiya; b) gemilaminektomiya + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanallari dekompressiyasi + ligamentektomiya; v) kengaytirilgan gemilaminektomiya + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanallari dekompressiyasi + ligamentektomiya.

#### **§2.4 Bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklar bilan xastalangan bemorlarning morfologik tekshirish usullari**

**Jarrohlik amaliyoti paytida** olingan toʻqima boʻlaklari, jumladan togʻayli disk va uning fibroz pardasi, umurtqa suyagining gʻalvirak qismi va Shmorl churrasi, protruziya koʻrinishida boʻrtib chiqqan togʻayli disk qismi, churra va uning sekvestrlangan qismi, umurtqa suyagi osteofitlari, spondiloartrozda yoysimon oʻsimtali boʻgʻimlarning barcha struktur birliklari, jumladan togʻayi, suyak, fibrozli pardasi, boylamlari va boʻgʻim atrofidagi mushaklari, umurtqa pogʻonasining orqa yuzasi chuqur mushaklari morfologik jihatdan oʻrganildi.

1. *Gematoksilin va eozin boʻyogʻi*: Gistologik kesmalarni boʻyash uchun eng koʻp ishlatiladigan usul hisoblanadi. Kesmalar xloformda deparafinizatsiya qilinadi, distillangan suvda yuviladi, keyin kesma yuzasiga gematoksilin eritmasi tomizilib 3 minut ushlanadi. Oqar suvda 10 minut davomida yuvilib, 0,2dan 3

mingacha eozin bilan bo‘yaladi. 70° va 96° spirtida suvsizlantirilib, karbol-ksilol va ksiloldan o‘tkazilib, balzam bilan yopiladi.

2. *Pikrofuksin bilan Van-Gizon usulida biriktiruvchi to‘qimani bo‘yash.*

Parafini ketgazilgan kesmalar suvda yuvilib, 3-5 minut Veygert gematoksiliniga qo‘yiladi. Ikki marta oqar suvda yuvilgandan keyin, 2-3 minut pikrofuksinda bo‘yaladi va darhol 5-15 sek. suvda chayiladi. Keyin 96° spirtidan o‘tkazilib, qaytadan 1-3 minut spirtida ushlanadi. Kesmalar karbol-ksilol va ksilol bilan ishlov berilib, balzam bilan yopiladi.

3. *Elastik tolalarni rezorsin-fuksina (fukselin) bilan Veygert usulida bo‘yash.*

Parafini ketkazilgan kesmalar litiyli karminda 10-15 minut bo‘yaladi. Kesmalar yuvilmasdan 1% xlorlivodorod kislotaga va 70% spirtga 10 minut o‘tkaziladi. Kesmalar suvda va 70% spirtida yuviladi. Keyin rezorsin-fuksinga o‘tkaziladi. 1-2 minut distillangan suvda yuviladi. 1% xlorlivodorodning spirtli eritmasida differensirovka qilinadi. Mikroskopda nazorat qilinib boriladi, ya’ni elastik tolalar aniq ko‘k rangga bo‘yalganda to‘xtatiladi.

**Umurtqa pog‘onasi bel soxasi umurtqa suyagi va yumshoq to‘qimalarining multipleksli morfometrik ko‘rsatkichlari.** Bel umurtqalari epimetafizar soxasida patomorfologik o‘zgarishlarida yuzaga keldigan osteoxondroz, protruziya va Shmorl churralarida to‘qima tarkibini tashkil etuvchi xujayra va xujayralararo tuzilmlar va epimetafizar soxasidagi tog‘ay va suyak to‘qimalarining morfologik o‘zgarishlarini raqamlarda ifodalash va o‘zgarishlarni aniq bir ko‘rsatkichlarda taxili qilish uchun eng zamonaviy tekshirish usullaridan bo‘lgan multipleksli morfometriya usulida, 3 o‘lchamli ko‘rinishdagi to‘qima tuzilmlarining aniqbir kesishma nuqtalari va tekisliklarda xajmiy va sifatiy o‘zgarishlavrini 200x kattalikda NanoZoomer (REF C13140-21.S/N000198/HAMAMATSU PHOTONICS/431-3196 JAPAN) da skaner qilindi. Olingan mikrotasvirlarni QuPath-0.5.0+ImageJ dasturiy ta’minoti orqali ishlov berildi va olingan natijalar taxlil qilindi. Bel umurtqasi fibroz xalqasi tarkibidagi xujayralarning egallagan maydoni % bo‘yicha olingan natijalarning qisqacha raqamli ko‘rinishlari quyidagi 4.6.1- jadvalda keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bel umurtqalari degenerativ-distrofik o‘zgarishlarning klinik-anamnestik tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida RPAM biopsiya tashxisot bo‘limida oxirgi 3 yil (2019-2022 yy.) davomida ko‘rilgan bel sohasidagi degenerativ-distrofik kasalliklar, ya’ni osteoxondroz va uning asoratlari bo‘lgan protruziya va disk churrasi-46nafar bemor, Shmorl churrasi-26 nafar bemor, spondilez-33 nafar va spondiloartroz-35 nafar bemorlarni jarrohlik muolajasida olib tashlangan umurtqalar oralig‘i disk fragmentlari biopsiya tekshiruvi materiallaridan foydalanildi. Kasallarning klinik-laborator ma’lumotlari tahlili patogistologiyaga yo‘llanma va bemorlarning neyroxirurgiya, travmatologiya bo‘limida davolangandagi kasallik tarixi ma’lumotlaridan olindi. Bemorlarning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi 2-jadvalda keltirilgan.


**2-jadval**

**Kuzatuvdagi bemorlarning yoshi va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi**

Bemorlar yoshi	O'rtacha yosh ko'rsatkichi	Erkak		Ayol	
		Soni(n)	%	Soni(n)	%
≤30	56,4±11,2	2	3,8	1	1,1
31-40		8	15,1	9	10,3
41-50		6	11,3	13	14,9
51-60		10	18,9	25	28,7
61≤		27	50,9	39	44,8
<b>Jami</b>		<b>53</b>	<b>37,9</b>	<b>87</b>	<b>62,1</b>
<b>140</b>					

2-jadvaldan ko'rinadiki, bel sohasining degenerativ-distروفik kasalliklar bemorlarning yoshi va jinsi o'rtasida sezilarli tafovutga ega.

Bemorlarning yoshi ulg'aygan sari kasallik progressiyasi kuzatilishi belgilangan, demak bemorlarning yoshi ortishi sari degenerativ jarayonlar tobora ortish xususiyatiga ega. Demak jadvaldan yakuniy xulosalarni jamlaganimizda, erkak bemorlarning 61 yoshda kasallanganlari eng yuqori ko'rsatkichni 50,9% ni tashkil etsa, ayollarda esa 31-40 yoshdan kasallik 10,3%dan boshlab ortib borib, 61 yoshdan yuqori bo'lgan ayol bemorlarning ko'rsatkichi 44,8% dan tashkil topgan. Jinslar bo'yicha tafovut darajasi 14% bo'lib, 53 nafari erkaklar (37,9%), 87 nafarini ayollar (62,1%) ni tashkil qilgan. Bel soha degenerativ-distروفik kasalliklarning jinsga bog'liq ko'rsatkichlari tadqiqotimizda erkaklarga nisbatan ayollarda uchrash darajasi yuqori ekanligi aks ettirilgan.



**3-rasm. Degenerativ kasalliklarning erkak va ayollarda davomiyligi, oy va yillarda**

Ma'lumot qilib aytish joizki, tadqiqotimizga olingan 140 nafar bemorlarning umurtqa pog'onasi bel sohasida kechadigan degenerativ- distروفik kasalliklarining jinsga nisbatan tafovutlanishi quyidagi jadvallarda kuzatishi mumkin. Kasalliklar taqsimlanishi quyidagicha, ya'ni osteoxondroz va uning asoratlari bo'lgan protruziya va disk churrasi-46 (32,8%) nafar bemor, Shmorl churrasi-26 (18,5%) nafar bemor, spondilez-33(23,5%) nafar va spondiloartroz-35(25%) nafarni tashkil qilgan.

Erkak bemorlarda osteoxondroz asoratlari disk churralari-10 (18,8%), Shmorl churrasi-8(15%), spondilez-15(28,3%), spondiloartroz-20 (37,7%) nafar bemorlarda aniqlandi.

Ayol bemorlarda esa mazkur kasallik uchrash darajasi quyidagicha bo'lib, osteoxondroz asoratlari disk churralari-36 (41,3%), Shmorl churrasi-18 (20,6%), spondilez-18(20,6%), spondiloartroz-15 (17,2%) nafar bemorlarda aniqlandi. Tadqiqotimizga kiritilgan barcha bemorlarni tekshiruv usullariga bemorlarni anamnezi, shikoyatlari, ob'yektiv va sub'yektiv ko'ruvlari, hamda rentgenologik va magnit-rezonansli kompyuter tomografiyasi orqali o'rganildi. Kuzatuvdagi barcha bemorlarda rentgenologik tekshiruvlar va ularning tahlilini taqqoslash, shuningdek, og'riq sindromi omilini aniqlash maqsadida umurtqaning bel qismini MRT tekshiruvi amalga oshirildi.

Bel sohasida degenerativ-distrofik kasalliklarni barchasida **konservativ davo** samarasiz bo'lib, biz kuzatgan 140 nafar bemorlarni barchasini kasallik tarixi va bemorlarni so'zlaridan konservativ davolanish yashash joyidan yoki statsionar tarzda bir necha bor o'tkazilgan, lekin ijobiy samara kuzatilmagan. Bemorlarni konservativ davo olgan vaqt me'yorlari kasallik davomiyligi intervalini uzaytirib borgan. Barcha bemorlarda operativ davo o'tkazilgan. Bel umurtqalari osteoxondrozi disk churralari bilan og'riq bemorlarda biz quyidagi holatlarda bemorlarni konservativ davolashni samarasizligini kuzatuvimizdan xulosa qildik. Prolaps holatidagi disk churralari, sevestrlangan disk churralari, foraminal turdagi disk churralari, umurtqa kanali tug'ma va orttirilgan stenozlari bilan uchraydigan disk churralari, polisegmentar holatda uchraydigan disk churralari kabi kasalliklarida konservativ davo o'tkazish samarasizligi isbotlandi.

### **§3.2. Bel umurtqalari degenerativ-distrofik o'zgarishlari bilan xastalangan bemorlarni operativ davolash turlari**

Diagnostik tekshiruv va klinik-nevrologik ma'lumotlar asosida 140 nafar bemorda quyidagi jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi: 32 nafar bemorda – arkotomiya+diskektomiya+foraminotomiya; 70 nafar bemorda– gemilaminektomiya+diskektomiya+foraminotomiya+ildiz kanallari dekompressiyasi + ligamentektomiya; 38 nafar bemorda – kengaytirilgan gemilaminektomiya + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanallari dekompressiyasi + ligamentektomiya.

**3-jadval**

№	Kasallik shakllari	Bemorlar soni
1	arkotomiya + diskektomiya + ildizcha teshigi foraminotomiyasi	32 nafar

2	gemilaminektomiya + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanali dekompressiyasi	70 nafar
3	kengaytirilgan gemilaminektomiya (klinika modifikatsiyasida)	38 nafar
	Jami	140

Kuzatuvdagi 140 nafar bemorda jarrohlik yo‘li bilan davolashning quyidagi usullari qo‘llanildi: arkotomiya + diskektomiya + ildizcha teshigi foraminotomiyasi; gemilaminektomiya + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanali dekompressiyasi; kengaytirilgan gemilaminektomiya (klinika modifikatsiyasida).

Birinchi usulda jarrohlik amaliyoti texnikasi: bemorlar bel umurtqasi sohasida teri 8 sm uzunlikda kesiladi, teri osti yumshoq to‘qima qirrasimon o‘siqlar va yumshoq to‘qimalardan ajratiladi (skeletlanadi). Umurtqalar yumshoq to‘qimalardan ajratilgandan keyin, maxsus kengaytirgich yordamida umurtqa ravog‘igacha kengaytiriladi. Ma‘lum umurtqa yoyi qisman kesiladi. Undan so‘ng orqa miya qattiq pardasi mobilizatsiya qilinadi, disk churrasi maxsus qoshiqcha yordamida kyuretaj qilib olib tashlanadi. Operatsiyaning ushbu bosqichida orqa miya qon tomirlari va ildizchani ehtiyot qilish maqsadga muvofiqdir. Umurtqalararo teshikning yuqori devori mikrojarrohlik turidagi keskich yordamida kesiladi, bu orqa miya ildizining to‘la dekompressiyasiga imkon beradi. Natijada, operatsiyadan keyingi davrda umurtqalararo teshikda ildizcha invaginatsiyasini oldi olinadi va ildizcha erkin ekskursiyasi ortadi.

2) **gemilaminektomiya + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanali dekompressiyasi.** Gemilaminektomiya operatsiyasining bajarilish texnikasi quyidagicha: bemor umumiy endotraxeal narkoz ostida, assistentlar yordamida qoringa yotqiziladi. Bel umurtqalarining ma‘lum umurtqa sohasida 8 sm uzunlikda teri kesiladi. Kuzatuvdagi 140 nafar bemorning 32 nafari arkotomiya usulida operatsiya qilindi va unga quyidagi ko‘rsatmalar xizmat qildi: bel umurtqalari osteoxondrozining klinik ko‘rinishi + disk churrasi + sariq bog‘lam gipertrofiyasi, orqa miya ildizcha kompressiyasi; umurtqalararo disk churrasi + orqa miya ildizcha kompressiyasi + spondiloartroz; umurtqalararo disk churrasi, uning lateral turi + ildizcha kanali stenoz + spondiloartroz; umurtqalararo disk churrasi + sariq bog‘lam gipertrofiyasi + orqa bo‘lama bog‘lam gipertrofiyasi + spondiloartroz.

Kuzatuvdagi 140 nafar bemorning 38 nafarida kengaytirilgan gemilaminektomiya operatsiyasi amalga oshirildi. Kengaytirilgan gemilaminektomiya operatsiyasini bajarishga quyidagi ko‘rsatmalar ishlab chiqildi: bel umurtqalari osteoxondrozining surunkali va qaytalanuvchi klinik turi + bel umurtqa kanali stenoz + disk churrasi + spondiloartroz;

bel umurtqalari spondiloartrozi + asoratlangan disk churrasi + sariq bog‘lam, orqa bo‘ylama bog‘lam gipertrofiyasi.

**Bel umurtqalari degenerativ-distrofik o‘zgarishlari bilan xastalangan bemorlarni operativ davolash turlarini modifikatsion usullari.**

Bel umurtqasi disk churralarining diskektomiya tashrixida umurtqa tanasining noturg'unligini «Lavsanooplastika» usulida shaxsiy usullari ishlab chiqildi. «Lavsanooplastika» usulida boshqa «XNIIOT» va «TPF»da afzalligi shundaki, keksa yoshdagi, qandli diabet II va III tur osteoporoz tashxisi qo'yilgan bemorlarda fiksatorlarni mahkamlash imkoni yo'qligi bunday bemorlarda «Lavsanooplastika» usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan. Boshqa metall fiksatorlar «XNIIOT» va «TPF»lardan «Lavsanooplastika» usuli arzon va qulay, hamda umurtqa pog'onasi osteoporozlarida ham foydalanilgan. «XNIIOT» va «TPF» metall fiksatorlar o'rnatilgandan so'ng, 2-2,5 yildan keyin yana tashrix o'tkazish yo'li bilan metall konstruksiya olib tashlandi. «Lavsanooplastika» usulida esa – lavsan iplar qayta olib tashlanmaydi, ular organizmda so'rilib ketish hususiyatiga egadir, ya'ni inkapsulyatsiya bo'ladi. Umurtqa pog'onasidagi noturg'unlikka barham beriladi. Boshqa metall fiksatorlardan farqi – sovuq tortmaydi, og'riq bermaydi, yiringlamaydi va metallozga ham uchramaydi.

**Tashrix texnikasi.** SMA ostida bel sohasi yod, spirt eritmasi bilan ishlov berilib tozalanadi. Bel umurtqalari ustidan teri ostidagi to'qimalar 6 sm uzunlikda kesiladi. Umurtqaning o'tkir o'simalari va ravoqlari o'ng tomondan yumshoq to'qimalar va mushaklardan ajratiladi. Elektrokoagulyatsiya va perekis vodorod eritmasi yordamida gemostaz kilinadi. L4 umurtqani ravog'i o'ng tomondan arkotomiya usulida umurtqa kanali ochiladi. Umurtqa kanali reviziya qilinganda L4-L5 oralig'idan chiqqan prolaps holatidagi disk churrasi topiladi. Disk churrasi orqa miya pardasini va L5 ildizchani ezib turganligi aniqlanadi va kompressiya hisobiga L5 ildizcha ko'kargan va shishgan. Shu sohadagi epidural venalar ko'kargan, shishgan. Shu sohadagi epidural venalarda varikoz kengayganligi aniqlandi. Disk churrasi «diskektomiya» usulida olib tashlanadi. L5 ildizchani chiqish teshigi «foraminotomiya» usulida kengaytiriladi. Operatsiya davomida kanal kaudal va kranial tomonlarga reviziya qilinadi va boshqa kompressiya belgilari aniqlanmadi. Operatsiya davomida L4 umurtqani noturg'unligi aniqlandi. L4 umurtqa noturg'unligi L4-L5 umurtqalari «lavsanooplastika» usulida bartaraf etiladi. Operatsiya yarasi yuvilib tozalanadi va yumshoq to'qimalarga qavatmaqavat choklar qo'yiladi. 2016 yildan 2023 yil noyabr oyigacha ADTI klinikalari «Neyroxirurgiya» bo'limi va «Mubinaxon-Shifo» xususiy klinikasi «Neyroxirurgiya» bo'limlarida «Lavsanooplastika» usuli qo'llanilgan operatsiyalar soni 140 tani tashkil etdi. Operatsiya o'tkazgan bemorlarni 137 tasida yaxshi natijalar aniqlandi, noturg'unlik sindromi bemorlarda bartaraf etilishi 3 oy, 6 oy, 12 oy, 36 oy muddatdagi qayta ko'ruvlarda kuzatilmadi. 3 ta bemorda, lavsan iplari yoqmasligi tufayli sekin - astalik bilan organizmni tabiiy holatda chiqarib yuborishi kuzatildi, ya'ni inkapsulyatsiyaga uchramadi. Tashriximizni **ikkinchi** modifikatsion turi bel umurtqasi disk churralarining diskektomiya tashrixida umurtqa ravog'ini olgandan so'ng, hosil bo'lgan defektini va shu sohada orqa miya pardasini va nerv ildizlarini, qo'pol chandiqlanishdan saqlash, orqa miya pardasi jarohatlangan holatlarda likvor suyuqligini agressiv xususiyatini hisobga olgan holda, orqa miya defektini berkitish maqsadida va buning natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlarni bartaraf etish uchun «Yog' plastika» usuli qo'llanildi. Mazkur tashrixga bemorni o'zini yog' qatlamidan olingan yog' to'qimasidan

foydalanildi. O'zining yog' to'qimasi bo'lganligi sababli, hech qanday allergik reaksiyalar kuzatilmadi. Jarohatda yiringlash jarayoni va qo'pol chandiqlanishlar kuzatilmadi. Orqa miya pardasi va nerv ildizlarini suyak to'qimasining operatsiyadan so'nggi qirrali yuzalaridan himoya qiladi, ya'ni jarohatda «yumshoq yostiq» vazifasini bajardi. Iqtisodiy jihatdan bemorlarga turli plastika uchun qo'llaniladigan qimmat materiallar sotib olishga ehtiyoj bo'lmadi. Orqa miya pardasini yallig'lanishi, ya'ni epidurit uslub qo'llanilgan bemorlarda kuzatilmadi. Ravoqlarni olgandan so'ng, hosil bo'lgan defektni konsolidatsiyasida orqa miya qattiq pardasi bilan chandiqlanish bo'lmaydi va shu sababli, operatsiyadan keyingi davrda chandiqlanish hisobiga bo'ladigan og'riqlarni oldini olish (profilaktikasi) kuzatildi.

Operatsiya o'tkazgan bemorlarni 140 tasida yaxshi natijalar aniqlandi. «Yog' plastika» uslubi qo'llanilgan bemorlarda bartaraf etilishi 3 oy, 6 oy, 12 oy, 36 oy muddatdagi qayta ko'ruvlarda asoratlanishlar kuzatilmadi.

### **§3.3. Bel umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklarida o'tkazilgan tashrixlardan keyingi to'qimalar morfologiyasi.**

**Jarrohlik amaliyoti paytida** olingan to'qima bo'laklari, jumladan tog'ayli disk va uning fibroz pardasi, umurtqa suyagining g'alvirak qismi va Shmorl churrasi, protruziya ko'rinishida bo'rtib chiqqan tog'ayli disk qismi, churra va uning sekvestrlangan qismi, umurtqa suyagi osteofitlari, spondiloartrozda yoysimon o'simtali bo'g'imlarning barcha struktur birliklari, jumladan tog'ayi, suyak, fibrozli pardasi, boylamlari va bo'g'im atrofidagi mushaklari, umurtqa pog'onasining orqa yuzasi chuqur mushaklarini makroskopik ko'rinishi quyidagilarni tashkil etdi.

### **§3.4. Bel umurtqalari degenerativ-distrofik kasalliklarida o'tkazilgan tashrixlardan keyingi kamchiliklar va asoratlari xaqida ma'lumot**

O'tkazilgan tashrixlarni qayta klinik-diagnostik va morfologik tekshiruvlardan o'tkazganimizdan so'ng, quyidagi kamchiliklar (asoratlar) kelib chiqdi va dissertatsiya ishining maqsadiga muvofiq asoratlar bartaraf etildi va diagnostik-davolash algoritmi yaratildi. **Arkotomiya** + diskektomiya + ildizcha teshigi foraminotomiyasi tashrixi 32 nafar bemorlarda o'tkazildi. Mazkur tashrixni o'tkazgan bemorlarda tashrixdan keyingi davrda 10 (31%) nafar bemorlarning kompression-ishemik og'riqlar saqlanib qolish holatlari ko'proq uchradi. **Gemilaminektomiya** + diskektomiya + foraminotomiya + ildiz kanali dekompressiyasi; mazkur tashrix turi 70 nafar bemorda o'tkazildi va quyidagi asoratlar 12 (17%) nafar bemorlarda kelib chiqdi. Orqa miyani o'rab turuvchi sariq bog'lam (lig.flavum) yosh va o'rta yoshdagi bemorlarda orqa bo'ylama bog'lam va uzun bog'lamlarni ossifikatsiyalari kuzatilishi, hamda umurtqa kanali orttirilgan stenozini hisobga olmagan holda o'tkazilgan gemilaminektomiya tashrixidan so'ng morfologik buzilishlar o'rganilganda, mazkur yosh kategoriyasidagi bemorlarda kengaytirilgan. Gemilaminektomiya tashrixini o'tkazishga maqsadga muvofiq deb topdik. **Kengaytirilgan gemilaminektomiya** (klinika modifikatsiyasida). Tashrixni 38 nafar bemorda qo'lladik va quyidagi kamchiliklar va asoratlarni 8 (21%)nafar bemorda kuzatdik. Bel umurtqalari degenerativ-distrofik o'zgarishlarini klinik-anamnestik tahlili xulosasi bizni tadqiqotimizda


quyidagilarni taqdim qildi. Kuzatuvdagi bemorlarning yoshi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi kasallangan jami erkaklar soni 53 nafar, ayollar esa-87 nafarni tashkil etdi, ya'ni bel sohasidagi kuzatilgan degenerativ-distروفik kasalliklar ko'proq ayollarda uchrashi aniqlandi. Bemorlarni o'rtacha yoshi  $56,4 \pm 11,2$  tashkil qildi.

Kasallik davomiyligini ko'rganimizda 10 nafar bemorda, ko'proq ayollarda kasallik davomiyligi 6 oydan 10 oygacha, 21 nafar bemorda esa 1 yil, 25 nafar bemorda esa 2 yilni tashkil qiladi. Qolgan 66 nafar bemorda 3 yildan ortiq davom etgan. Demak bemorlarni yoshi ortishi bilan kasallikni davomiyligi, turli degenerativ-distروفik omillar oqibatida ortib borgan.

Kasalliklar tafovutlanishi, ya'ni degenerativ-distروفik kasalliklari mavjud bemorlarni aksariyatida umurtqa pog'onasi disk churrasi kasalligi eng ko'p bemorlar kontingentida kuzatilib, yaqqol namoyon bo'lishi, ya'ni uchrashi ko'proq ayollarda kuzatilar ekan-36ta (41,3%), erkaklarda esa-10 ta(18,8%). Shmorl churrasi aksariyat hollarda ko'proq yoshi yoshroq bemorlarda, asosan ayollarda ko'proq uchrashi kuzatilgan bo'lsa, 18ta (20,6%), erkaklarda esa-8ta (15%), spondilez kasalligi ayol bemorlar orasida-18ta (20,6%)ni tashkil qilsa, erkak bemorlarda- 15 (28,3%) nafarda kuzatildi va keyingi degenerativ-distروفik kasalliklardan biri spondiloartroz, ayollarda-15ta (17,2%) kuzatilgan bo'lsa, erkak bemorlarda ushbu ko'rsatkich bir oz ko'tarilib-20 (37,7%) nafar bemorlarda aniqlandi.

Mazkur tashrix modifikatsiyalarini kamchilik va asoratlari o'rganilib, tahlil qilingandan so'ng umurtqa pog'onasini bel qismining degenerativ-distروفik kasalliklari bo'lgan bemorlarda ixtisoslashgan jarrohlik amaliyotini belgilash bo'yicha **tibbiy texnologiyalar ishlab chiqarilgan**; ularning patogenetik asosi va differensiyalangan optimal usuli taklif qilingan. Umurtqa pog'onasi bel qismining degenerativ-distروفik kasalliklari bo'lgan bemorlarda statsionar jarrohlik yordamini tashkil qilish tizimida davo-diagnostik algoritmi yaratilgan; jarrohlik amaliyoti standartlashtirilgan, uning asosida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam modeli yaratilgan.


Dissertatsiyaning «**Bel sohasi degenerativ-distروفik kasalliklarida umurtqa pog'ona qattiq to'qimalari va atrofidagi yumshoq to'qimalarda rivojlanadigan patomorfologik o'zgarishlar**» deb nomlangan to'rtinchi bobida Shmorl churrasida umurtqalar oralig'i elastik parda, fibroz parda va umurtqa suyak g'alvirak qismidagi patomorfologik o'zgarishlar keltirilgan. Shmorl churrasining kelib chiqish mexanizmini inobatga olib, dastlab umurtqa suyagining g'ovak qismi, so'ng uni bo'g'im yuzasini qoplab turadigan tog'ay qoplami va tog'ayli diskning fibroz pardasi, so'ng esa suyakning g'alvirak qismiga botib kirgan churra to'qimasi mikroskopik jihatdan o'rganildi. Shmorl churrasi bilan kasallangan insonlar umurtqa suyagi g'alvirak qismida bir qator umumiy patomorfologik o'zgarishlar rivojlanganligi aniqlandi, jumladan kompakt suyak ustunlarida kuchli va qaytmas darajadagi distروفik va destruktiv o'zgarishlar rivojlanganligi topildi (4-rasmga qarang).



Umurtqa suyagining g'alvirak qismi o'rganilganda shu holatlar aniqlandiki, suyak g'ovak bo'shliqlari me'yordagi suyak ko'migi hujayralari bilan to'lgan bo'lishidan farq qilib, ularning o'rnida qon quyilishlar, uglevodli va oqsilli modda, biriktiruvchi to'qima tutamlari va kalsinoz o'choqlari bilan egallanganligi aniqlanadi. Ayrim hollarda suyakning g'alvirak qismida fibrozli va lipomatozli displaziya rivojlanganligi aniqlanadi. Bunda kompakt suyak ustunlari yana ham deformatsiyalanganligi, ayrim joylarida uzilganligi va fibroz to'qima o'sib kirganligi aniqlanadi. Suyakning g'ovak bo'shliqlaridagi me'yordagi suyak ko'migi o'rniga biriktiruvchi to'qimali fibroz tutamlar va yog' to'qimasi o'sib, ko'payganligi aniqlanadi (5-rasmga qarang). Shmorl churrasi sababi insonning yoshlik davrida tananing tez o'sishi oqibatida umurtqa pog'onasining yumshoq to'qimalari tez rivojlanib, suyak to'qimalari o'sishdan orqada qolishi va suyakning g'alvirak qismida bo'shliq paydo bo'lishi, umurtqa suyagi bo'g'im yuzasini qoplab turuvchi parda vaqt o'tishi bilan suyakning g'alvirak qismiga botib kirishi hisoblanadi. Umurtqa suyagi g'ovak qismida kompakt suyak trabekulalarida kuchli va qaytmas darajadagi distrofik va destruktiv o'zgarishlar rivojlanib, tarkibida fibrozli displaziya va kalsinoz paydo bo'lganligi, suyak ustunlari o'z gistotopografiyasini yo'qotib, strukturasiz holatga kirganligi aniqlanadi. G'alvirak suyak g'ovaklarida me'yordagi suyak ko'migi hujayralari o'rniga qon quyilishlar, uglevodli va oqsilli modda, biriktiruvchi to'qima tutamlari va kalsinoz, ayrim hollarda to'liq lipomatoz rivojlanganligi aniqlanadi. G'alvirak suyakni qoplagan elastik tolali parda tarkibida ham elastik tolalar parchalanib, gomogenlashib, dag'al oqsil paydo bo'lganligi, oraliq moddasi vakuollashib, parchalanganligi kuzatiladi.

**Umurtqa pog'onasi sariq bog'laming morfologik o'zgarishlari.** Insonning umurtqa pog'ona ustuni tayanch-harakat apparatining muhim qismi hisoblanadi. U ko'krak qafasi, bosh chanog'i, qorin va tos bo'shlig'i uchun o'ziga yarasha tayanch ustun bo'lib xizmat qiladi. Umurtqa pog'onasi o'rtasidan orqa miya yo'li o'tgan va unda vegetativ nerv tizimining muhim qismi joylashgan. Zamonaviy kompyuter tomogramma tekshiruv xulosalarida ko'rsatilishicha, sariq bog'lam gipertrofiyasi ko'p uchraydigan patologiya hisoblanadi. Rentgenografiya


tasvirida ko‘rinishicha sariq bog‘lam qalinlashganligini ko‘rib bo‘lmaydi, chunki u zich kalsinozli tuzilishga ega emas. Magnit-rezonans tomografiya (MRT) tekshiruvini umurtqa pog‘onasi struktur elementlarini aniq ko‘rsatadigan usul hisoblanadi, jumladan unda umurtqalar oralig‘i disk, orqa miya va pardalari, tomirlar va nervlar, bog‘lamlar, tog‘ay to‘qimasi, bo‘g‘imlar, atrofidagi mushak va to‘qimalar yaxshi ko‘rinadi. Sariq bog‘lam umurtqa suyaklarini bir-biri bilan bog‘laydi va umurtqa kanalining orqa devorini paydo qiladi.



Sariq bog‘lam to‘qimasini mikroskopik tekshiruvda o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotlar olindi. Ushbu to‘qima bir-biriga parallel joylashgan kollagen va elastik tolalar tutamlaridan iboratligi aniqlandi (6-rasmga qarang). Kollagen tolalar nisbatan yo‘g‘onroq tutamlarni paydo qilganligi va eozin bilan qizg‘ish rangga bo‘yalganligi topildi. Ularning tarkibida cho‘zinchoq shaklli fibroblastlar joylashganligi, yadrosining ham cho‘zinchoqligidan tolali tutamlarga qo‘shilib ketganligi aniqlanadi. Elastik tolalar gematoksilin-eozin bo‘yog‘ida nisbatan och bo‘yalganligi va kollagen tolalar tutamlari orasida oraliq modda ko‘rinishida joylashganligi aniqlanadi. Kollagen tolalarni aniqlash uchun qo‘llanilgan Van-Gizon bo‘yash usuli qo‘llanilganda sariq bog‘lam tarkibidagi tolalar pikrofuksin bilan qizil rangga bo‘yalganligi va ular nisbatan titilgan holdagi tutamlardan iborat ekanligi aniqlanadi (7-rasmga qarang).

Sariq bog‘lam gipertrofiyasi umurtqa pog‘onasining har qanday joyida, aksariyat hollarda bel sohasida rivojlanib, orqa miya kanalining torayishi, oyoq-qo‘llarning falaji, yelka, qo‘llar va oyoqlar mushaklarining distrofiyasi, vegetativ nerv tizimiga bog‘liq surunkali kasalliklarning avj olishiga sababchi bo‘ladi. Umurtqa pog‘onasi sariq bog‘lamining gipertrofiyalanib, qalinlashishi, degenerativ va yallig‘lanishli kasalliklaridan keyin rivojlanib, qon tomirlari atrofida va oraliq to‘qimasida gistitsitar hujayralar ko‘payishi bilan boshlanadi. Sariq bog‘lamning gipertrofiyalanishi tarkibidagi kollagen tolalarning keskin ko‘payishi, fibroelastoz jarayonining rivojlanishi, elastik tolalarning parchalanib, destruksiyanib, miqdorining kamayishi bilan namoyon bo‘ladi.

**Umurtqa pog‘ona bel sohasi protruziya va churrasida patomorfologik o‘zgarishlar.** Umurtqa pog‘onasi churrasida tog‘ayli disk fibroz xalqasining tolali to‘qimalari betartib joylashganligi (8-rasmga qarang) uchun turli yuklamalar va modda almashinuvining buzilish jarayonlari natijasida kelib chiqadi.



Umurtqa tog‘ayli diskining gistologik tekshiruvlari olib borilgan 30 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan bemorlarda disk tuzilishi bir xil emasligi tog‘ay qavatining markazga yo‘nalgan to‘qimalari yumshoqroq dirildoq yadroga yuzlangan bo‘ladi. Diskning o‘rta qavatida to‘qimalar elastik tog‘ay tolalardan iborat, chetki qismida esa tog‘ayli to‘qima ancha zich tolali dumaloq ingichka tasmalardan iborat. Me‘yordagi umurtqa tog‘ayli diski fibroz xalqasi zarb yuklamalarning hajmini kamaytirib, diskni odatiy holatini saqlab turadi. Umurtqalararo disk fibroz to‘qimasi ichki va tashqi qavatlari siyrak kollagen tolalardan iboratligi aniqlandi. Ayrim kollagen va elastik (9-rasmga qarang) tutamlari orasida shish va oraliq modda aniqlandi, bu diskni elastikligiga va disk oziqlanishiga xizmat qiladi.

Ta‘kidlash joizki, umurtqa pog‘onasi churrasining klinik va patomorfologik o‘zgarishlarini tahlil qilganimizda tog‘ayli disk hamma umurtqalarda turlicha rivojlanishda bo‘lishi, bu esa patologik jarayonlarni to‘g‘ri baholashni taqozo etadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatdiki, bemorlarning kasallik darajalarini o‘rganishda va to‘g‘ri tashxis qo‘yishda patomorfologik o‘zgarishlarni yoshiga, turmush tarzi va ish faoliyatiga individual yondashib aniqlash kerakligini belgilab berdi. Umurtqa pog‘onasi kasalliklari harakat tayanch tizimi xastalıkları ichida yuqori o‘rinni egallaydi, buning asosiy sabablari mavzuning dolzarbligini bildirib turibdi.

Umurtqa pog‘onasi protruziyasi va churrasini davolashda tog‘ayli diskining albatta klinik morfologik xulosalariga asoslanish kerak, buning uchun har bir bemorga individual yondashish va shunga asoslab tashxis qo‘yish va davolash olib borish kerak. Biz o‘rganib chiqqan tog‘ayli diskining klinik morfologik o‘zgarishlari, umurtqaning turli pog‘onalarida har xil bo‘lishi, bu kuchlanishlar natijasida patomorfologiyasi me‘yordan o‘zgaradi.

Barcha tekshiruv xulosalari jarayonning lokalizatsiyasiga qarab umurtqa protruziyasi va churrasidagi patomorfologik o'zgarishlarni aniq belgilash va shu orqali davolash algoritmini ishlab chiqish kerakligini belgilab berdi. Umurtqa pog'onasi protruziyasi va churrasini klinik morfologik xususiyatlarini to'liq o'rganib borilishi, klinitsistlar uchun kasallik kelib chiqish sabablarini aniqlash va to'g'ri tahlil qilish va davolash algoritmini to'g'ri tanlanilishiga olib keladi.

**§4.4.Spondilezning patomorfologik o'zgarishlari.** Morfologik tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, umurtqa suyagi oldingi qirrasida bo'rtib chiqqan, har xil kattalikdagi g'adir-budir ko'rinishidagi osteofitlar gistologik jihatdan konsentrik joylashgan betartib holda suyaklangan, ko'p sonli har xil kattalikdagi yoriq va teshiklari mavjud tolali tuzilmalardan iboratligi aniqlandi. Spondilez kasalligida umurtqa suyagi oldingi qirrasida paydo bo'ladigan osteofitlar morfologik jihatdan konsentrik tuzilishga ega, tolali tuzilmalari va asosiy moddasi betartib joylashgan, tarkibida ohaklanish va pigmentatsiya o'choqlariga boy to'qimadan iboratligi isbotlandi. Diskning fibroz xalqa to'qimasiga osteofitlarning botib kirishi oqibatida, uning tolali tuzilmalari parchalanganligi, destruksiyalanganligi, qo'pol dispersli modda paydo bo'lganligi va tarkibida ohaklanish va xondromatoz metaplaziya rivojlanganligi kuzatildi. Dirildoq yadroda dastlab xondroid moddaning qo'pollashganligi, bo'yalishi buzilishi, tarkibidagi tolali tuzilmalar va oraliq moddasining disperslanib, quyushganligi, xondrotsitlar miqdori ko'payganligi va ularning har xil darajada distrofiya va destruksiya kabi jarayonlarga uchraganligi aniqlandi.

Surunkali spondilez kasalligida dirildoq yadro to'qimasi tarkibidagi xondrotsitlar to'liq destruksiya va nekrobiozlanib, strukturasi moddalarga aylanganligi, ohaklanish o'choqlari paydo bo'lganligi tasdiqlandi.

Umurtqa pog'onaning bel sohasida degenerativ-distrofik kasalliklarning ko'p uchrashligiga sabab odam gavdasining og'irligi tushadigan, doimiy ravishda harakatlanadigan, boshqa sohalariga nisbatan tuzilishi nozik, atrofida skelet mushaklari kam bo'lganligi hisoblanadi. Ushbu sohada umurtqa pog'onasiga xos bo'lgan barcha distrofik-degenerativ kasalliklar rivojlanadi. Jumladan: Shmorl churrasi, protruziya, churra, sekvestrlangan churra, spondilez va spondiloartroz. Ushbu kasalliklar oqibatida umurtqa pog'onaning barcha qattiq va yumshoq to'qimalari, atrofida bog'lamlar va mushaklar ham shikastlanib, o'ziga xos patomorfologik o'zgarishlar rivojlanadi.

Shmorl churrasi sababi insonning yoshlik davrida tananing tez o'sishi oqibatida umurtqa pog'onasining yumshoq to'qimalari tez rivojlanib, suyak to'qimalari o'sishdan orqada qolishi va suyakning g'alvirak qismida bo'shliq paydo bo'lishi, umurtqa suyagi bo'g'im yuzasini qoplab turuvchi parda vaqt o'tishi bilan suyakning g'alvirak qismiga botib kirishi hisoblanadi. Umurtqa suyagi g'alvirak qismida kompakt suyak ustunlarida kuchli va qaytmas darajadagi distrofik va destruktiv o'zgarishlar rivojlanib, tarkibida fibrozli displaziya va kalsinoz paydo bo'lganligi, suyak ustunlari o'z gistotopografiyasini yo'qotib, strukturasi holatga kirganligi aniqlanadi. G'alvirak suyakni qoplagan elastik tolali parda tarkibida ham elastik tolalar parchalanib, gomogenlashib, dag'al oqsil paydo bo'lganligi, oraliq moddasi vakuullashib, parchalanganligi kuzatiladi.

Sariq bog‘lam gipertrofiyasi aksariyat hollarda bel sohasida rivojlanib, orqa miya kanalining torayishi, oyoq-qo‘llarning falaji, yelka, qo‘llar va oyoqlar mushaklarining distrofiyasi, vegetativ nerv tizimiga bog‘liq surunkali kasalliklarning avj olishiga sababchi bo‘ladi. Umurtqa pog‘onasi sariq bog‘lamining gipertrofiyalanib, qalinlashishi, degenerativ va yallig‘lanishli kasalliklaridan keyin rivojlanib, qon tomirlari atrofida va oraliq to‘qimasida gistotsitra hujayralar ko‘payishi bilan boshlanadi. Sariq bog‘lamning gipertrofiyalanishi tarkibidagi kollagen tolalarning keskin ko‘payishi, fibroelastoz jarayonining rivojlanishi, elastik tolalarning parchalanib, destruksiyanib, miqdorining kamayishi bilan namoyon bo‘ladi.

Barcha tekshiruv xulosalari jarayonning lokalizatsiyasiga qarab umurtqa protruziyasi va churrasidagi patomorfologik o‘zgarishlarni aniq belgilash va shu orqali davolash algoritmini ishlab chiqish kerakligini belgilab berdi. Umurtqa pog‘onasi protruziyasi va churrasini klinik morfologik xususiyatlarini to‘liq o‘rganib borilishi, klinitsistlar uchun kasallik kelib chiqish sabablarini aniqlash va to‘g‘ri tahlil qilish va davolash algoritmini to‘g‘ri tanlanilishiga olib keladi. Shunday qilib, tog‘ayli disk protruziyasi va churralarining klinik morfologik o‘zgarishlarini to‘g‘ri baholash zarurligi ma‘lum bo‘ldi. Bu orqali tashxisni mukammal qo‘yish va zamonaviy usullarda davolash, insonlar salomatligi uchun muhim o‘rin egallaydi.

Spondilez kasalligida umurtqa suyagi oldingi qirrasida paydo bo‘ladigan osteofitlar morfologik jihatdan konsentrik tuzilishga ega, tolali tuzilmalari va asosiy moddasi betartib joylashgan, tarkibida ohaklanish va pigmentatsiya o‘choqlariga boy to‘qimadan iboratligi isbotlandi. Diskning fibroz xalqa to‘qimasiga osteofitlarning botib kirishi oqibatida, uning tolali tuzilmalari parchalanganligi, destruksiyalanganligi, qo‘pol dispersli modda paydo bo‘lganligi va tarkibida ohaklanish va xondromatoz metaplaziya rivojlanganligi kuzatildi.

Umurtqa pog‘onasi degenerativ-distrofik kasalliklari oqibatida umurtqa orqa yuzasining chuqur mushaklarida ham dastlab destruktiv, yallig‘lanishli va fibromatoz o‘zgarishlar rivojlanishi kuzatiladi. Proliferativ yallig‘lanishli va fibromatoz o‘zgarishlar mushak tolalari atrofini o‘rab olib, mushak tolalari miofibrillarini destruksiyalab, ichiga kirib borishi aniqlanadi, ayrim hollarda, mushak tolalari atrofida limfoproliferativ infiltratsiya, miofibrillarining immunologik lizislanishi autoimmun jarayon rivojlanishidan dalolat beradi. Mushak tolalari o‘rnida paydo bo‘lgan fibroz to‘qima tarkibida xondromatozli va ossifikatsiyali metaplaziya rivojlanganligi isbotlandi.

### **Umurtqa pog‘onasi degenerativ kasalliklarida chuqur mushaklar shikastlanishining patomorfologiyasi**

Bel soxasi umurtqa suyagi dirildoq moddasi tarkibidagi tolali tuzilmalarning morfometrik jixatlari xar bir tekshirilgan xolat bo‘yicha olingan natijalarning ishonchlilik darajasi R-ko‘rsatkich bo‘yicha keltirilgan bo‘lib, tartibsiz tolali tuzilmalarning nazorat guruxiga nisbatan 3,2-4,2 barobarga oshganligi yuqorida keltirilgan morfologik o‘zgarishlardagi fibroelastoz va fibroskleroz o‘choqlarining keskin takomil topishi va dirildoq modda konsistensiyasini zich elastik xolatga kelishini tasdiqlaydi. Bu turdagi dirildoq modda tarkibidagi xaotik siyrak tolali

tuzilmalarning xajmiy va sifatiiy o'zgarishlari, dirildoq moddaning fibroz xalqani kompression bosilishi va umurtqa suyagi g'ovak moddasiga boitb kirishini morfometrik olingan ko'rsatkichlar orqali tasdiqlaydi. Shu bilan birga Shmorl churrasi tarkibidagi kollagen tolalarning giperplaziyasi va diametrining qalinlashishi (4-jadvalga qarang), dirildoq modda konsistensiyasini keskin zich elastik xolatga kelishini va yuqoridagi morfologik o'zgarishlar asosida , g'ovak moddaga bo'rtib kirishini tasdiqlaydi.


#### 4- jadval

#### Bel umurtqasi osteoxondrozida fibroz kapsula va uning tarkibiy qismlari % da keltirilgan.

№	Bel umurtqasi fibroz xalqasi kapsulasi tarkibidagi kollagen tolalarning egallagan maydoni %	Bel umurtqasi fibroz xalqasi tarkibidagi siyrak va xaotik joylashgan tolalarning egallagan maydoni %	Bel umurtqasi fibroz xalqasi tarkibidagi xujayralarning egallagan maydoni %	Oraliq moddaning maydonning egallagan %
<b>Nazorat guruxi</b>				
Old yuzasi	76,16±0,03	2,16±0,11	10,1±0,1	11,58±0,3
YOn yuzasi	73,05±0,07	4,28±0,12	6,01±0,2	16,6±0,4
Orqa yuzasi	80,17±0,08	5,43±0,19	5,06±0,6	9,34±0,2
<b>Tekshirilayotgan gurux</b>				
Old yuzasi	61,7±0,5	8,21±0,5	11,26±0,4	18,83±0,1
YOn yuzasi	54,6±0,6	27,7±0,6	8,9±0,2	8,8±0,4
Orqa yuzasi	76,2±0,5	7,89±0,3	6,92±0,2	8,99±0,1

Dirildoq yadrodan shakllangan SHmorl churrasida kollagen tolalarning nazorat guruxiga nisbatan o'rtacha  $64,16 \pm 1,26 \text{ mkm}^3$  bo'lib (nazorat guruxida dirildoq yadro tarkibidagi ushbu ko'rsatkich  $76,46 \pm 2,26 \text{ mkm}^3$ ) 1,3 barobarga kkkmayganligi aniqlandi. Shu bilan birga dag'al mikrofibrillyar yuzali kollagen tolalarning tartibsiz zigzagsimon joylashishi to'qimaga zis elastik konsistensiya berganligi va umurtqa suyagi tanasini kompressiyaon ezishi va g'ovak moddaga botib kirishi bilan xarakterlanadi. Oraliq to'qimaning 200x kattalikdagi o'rtacha  $14550 \text{ mkm}^3$  dagi oraliq to'qima xajmi tarkibidagi kollagen to'qimaning egallagan maydoni o'rtacha,  $11513 \text{ mkm}^3$  ni tashkil etib, nazorat guruxida ushbu ko'rsatkich o'rtacha,  $3623 \text{ mkm}^3$  ni tashkil etadi.

Bel soxasi Shmorl churrasi tarkibidagi siyrak xaotik joylashgan tolali tuzilmalarning oʻrtacha egallagan maydoni 14,6% ni tashkil etishi nazorat guruxiga nisbatan 3,69 marotabaga oshganligi fibroz toʻqimaning tarkibiy tuzilmasini keskin deformatsiyasi va bir joyga toʻplanishi koʻrinishdagi dagʻal zich elastik konsistensiyaga olib kelishi va umumrtqa suyagi tanasiga botishini tasdiqlaydi (4-jadvalga qarang).



Xulosa, oʻrnida bel umurtqa pogʻonasi fibroz xalqa tarkibidagi moddiy va sifatiy oʻzgarishlarning zamonaviy multipleksli morfometrik tekshirishlar natijasida olingan raqamli maʼlumotlar taxlili, Shmorl churrasi va bel umurtqasi boʻgʻim yuzalari tarkibidagi fibroz xalqa toʻqimasidagi morfologik oʻzgarishlar oqibatida rivojlanadigan patomorfologik oʻzgarishlarni va umurtqa suyagi gʻovak moddasiga boitb kirishini tasdiqlaydi.

## XULOSALAR

**«Umurtqa pogʻona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklarini jarrohlik usulida davolashning patomorfologik asoslari»** mavzusidagi tibbiyot fanlari boʻyicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi **xulosalar** taqdim etiladi:

1. Umurtqa pogʻona bel sohasi degenerativ-distrofik kasalliklari har birining klinik-anamnestik va instrumental maʼlumotlari oʻziga xos tizimga egaligi kuzatildi.

2. Umurtqa pogʻona bel sohasi osteoxondroz, protruziya va churrasining barcha toʻqima tuzilmalarida, yaʼni togʻayli disk, fibroz parda, umurtqa suyagi, sariq bogʻlam va chuqur skelet mushaklarlarida rivojlangan patomorfologik oʻzgarishlar oʻziga xos patogenetik va morfogenetik xususiyatlari, multipleksli morfometrik tekshirishlar bilan isbotlandi.

3. Umurtqa tanasi gʻalvirak suyagini qoplagan elastik tolali parda tolalarining parchalanishi, dagʻal oqsilga aylanishi, gʻalvirak suyakning distrofiya va destruksiyaga uchrashi natijasida togʻayli disk toʻqima

tuzilmalarining g'alvirak suyakka botib kirishidan Shmorl churrasi shakllanishi aniqlandi.

4. Spondilez kasalligi morfologik jihatdan umurtqa pog'ona suyak qirrasida betartib tuzilishga ega bo'lgan osteofitlar paydo bo'lishi, ularning fibroz pardaga botib kirishi va uni destruksiyalashi, tog'ayli diskning dirildoq yadrosida destruksiya, ohaklanish va xondromatoz kabi degenerativ o'zgarishlar rivojlanishi bilan namoyon bo'lishi kuzatildi.

5. Spondiloartroz umurtqaning qirrali bo'g'imi shikastlanishi, uning tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzilmalar, jumladan bo'g'im tog'ayi, tog'ayosti suyak, boylamlari, fibroz pardasi va atrofidagi mushaklari distrofiya, destruksiya va kalsinozga uchrashi bilan namoyon bo'ldi.

6. Umurtqa pog'ona bel sohasining barcha degenerativ-distrofik kasalliklarga xos morfologik mezonlar ishlab chiqildi, jumladan: Shmorl churrada tog'ayli diskning g'alvirak suyakka botib kirishi, g'alvirak suyak to'qima tuzilmalarining destruksiyasi, unda qon quyilish, fibrozli displaziya va kalsinoz rivojlanishi multipleksli morfometrik tekshirishlar orqali, tarkibida dag'al kollagen tolali tuzimlarning keskin ko'payishi va diametrining qalinlashishi tufayli yuzaga kelishi tasdiqlandi; spondilez kasalligida osteofitlar paydo bo'lishi, ularning fibroz parda va tog'ayli diskka botib kirishi va ularda destruksiya, ohaklanish va xondromatoz paydo bo'lishi; spondiloartrozda umurtqaning qirrali bo'g'imi tarkibi va atrofidagi barcha to'qima tuzimlarda degenerativ o'zgarishlar rivojlanishi morfologik mezonlar sifatida qabul qilindi.

7. Distrofik-degenerativ kasalliklarda umurtqa pog'ona qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan o'zgarishlarning morfogenezi, patomorfologiyasi va ortopedik xususiyatlarini inobatga olib, kaminvaziv darajadagi jarrohlik amaliyoti ishlab chiqilgan. Bel umurtqasi SHmorl churrasi tarkibidagi to'qima tuzilalarining morfometrik ko'rsatkichlari  $69,28 \pm 1,26$  bo'lib, nazorat guruhiga nisbatan 3,65 barobar ko'p miqdorda dagal tolali biriktiruvchi to'qima shakllangaligi aniqlandi.

8. Umurtqa pog'ona disk churrasi, spondilezi va spondiloartroziga bog'liq qattiq va yumshoq to'qimalarida rivojlanadigan morfologik o'zgarishlar bemorlarning yoshi, jinsiga qarab o'rganilib, yo'ldosh kasalliklari inobatga olinib, ortopedik rejim va dori vositalarini asosli tavsiya qilish, jarrohlikdan so'ng kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar profilaktikasi ishlab chiqarildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ МЕДИЦИНСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ  
АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**МАМАЖАНОВ БОХАДИРЖОН СОЛИЖАНОВИЧ**

**14.00.15 – Патологическая анатомия  
14.00.22 – Травматология и ортопедия**

**ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ХИРУРГИЧЕСКОГО  
ЛЕЧЕНИЯ ДЕГЕНЕРАТИВНО-ДИСТРОФИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ  
ПОЯСНИЧНОГО ОТДЕЛОВ ПОЗВОНОЧНИКА**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПО МЕДИЦИНСКИМ НАУКАМ**

**Фергана – 2024**

**Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.2. PhD /Tib860**

Диссертация выполнена в Андижанском Государственном медицинском институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) размещен на веб-странице Научного совета ([www.fjsti.uz](http://www.fjsti.uz)) и на информационно-образовательном портале “ZiyoNet” ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

<b>Научные консультанты:</b>	<b>Исроилов Ражаббой</b> доктор медицинских наук, профессор
	<b>Худойбердиев Кобил Турсунович</b> доктор медицинских наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Хасанова Мухаррама Алмаредановна</b> доктор медицинских наук, доцент
	<b>Крутько Александр Владимирович</b> доктор медицинских наук
	<b>Хамраев Алишер Шахобович</b> доктор медицинских наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Таджикский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины республики Таджикистан</b>

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_\_ часов на заседании разового Научного совета при научном совете PhD 04/30.09.2020.tib.122.01 по присуждению ученых степеней при Ферганском медицинском институте общественного здоровья (Адрес: 150100, город Фергана, улица Янги Турон, дом. 2а Тел.: +998(95) 400-01-14; факс: +998(95) 245-59-07; e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского медицинского института общественного здоровья (зарегистрировано за № \_\_\_\_). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Янги Турон, дом. 2а Тел.: +998(95) 400-01-14; факс: +998(95) 245-59-07; e-mail: [info@fjsti.uz](mailto:info@fjsti.uz)).

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года  
(протокол рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года)

**Сидиков А.А.**  
Председатель разового Научного совета по присуждению ученых степеней,  
д.м.н., профессор

**Ашурова М.Д.**  
Ученый секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней,  
к.м.н, доцент

**Рузиев Ш.И.**  
Председатель Научного семинара при разовом научном совете по присуждению ученых степеней, д.м.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc).**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире дегенеративные заболевания позвоночника (ДЗП) занимают одно из ведущих мест по инвалидности в промышленно развитых странах. Ежегодно более 1 миллиона пациентов нуждаются в медицинской помощи из-за ДЗП, из которых около 16000 пациентов имеют диагностированную инвалидность. Дегенеративно-дистрофические заболевания позвоночника занимают ведущее место в этиологии вертеброгенных миелорадикулопатий. При этом доля дегенеративно-дистрофических поражений позвоночника в составе неврологических заболеваний составляет 52%, из них 81% локализуется в поясничном отделе позвоночника. По мнению специалистов "...в течение года 22-65% взрослого населения испытывает хотя бы один эпизод дегенеративно-дистрофического заболевания позвоночника (ДДЗП), а 80-84% пациентов обращаются за медицинской помощью хотя бы один раз с жалобами на боли в спине...»<sup>4</sup>. По эпидемиологическим данным, в настоящее время беспокоят боли в пояснице у 18,3% респондентов, в течение последнего месяца - 30,8% и в течение прошлого года - 38,9%. Некоторые исследователи полагают, что ДДЗП встречается 100% у взрослого населения. Результаты исследования глобальных болезней (Global Burden of Disease Study) за последние десятилетия привели к увеличению числа лет тяжелой потери здоровья у пациентов с ДДЗП, которое увеличилось на 57% в период с 1990 по 2013 год. Следует отметить, что ДДЗП чаще поражает лиц трудоспособного возраста в возрасте от 25 до 55 лет, а тяжесть проявления дегенеративных заболеваний зависит, прежде всего, от вида профессиональной деятельности. Большие затраты на лечение и высокий риск инвалидности приводят к тяжелым экономическим проблемам на общество во всем мире. Поэтому разработка клинико-anamnestических и патоморфологических основ дегенеративно-дистрофических заболеваний поясничного отдела позвоночника является одной из важнейших задач современной медицины.

В мире проводится ряд целенаправленных научных исследований по совершенствованию патоморфологической основы хирургического лечения дегенеративно-дистрофических заболеваний поясничного отдела позвоночника. В связи с этим особое научное и практическое значение приобретают исследования, направленные на клинико-anamnestический и инструментальный анализ дегенеративно-дистрофических заболеваний поясничного отдела позвоночника, морфологические изменения отростчатого сустава и тканевых структур позвоночника при остеохондрозе, протрузиях и грыжах, патоморфологические изменения позвоночника при грыже Шморля, на оценку состава мягких и костно-хрящевых тканей позвоночника при спондилезе, на морфологические изменения, характерные

---

<sup>4</sup> Аслануков М. Н. и др. Результаты применения интраоперационного ультразвукового исследования в хирургии дегенеративных заболеваний поясничного отдела позвоночника //Нейрохирургия. – 2023. – Т. 25. – №. 3. – С. 59-68

для дистрофии, деструкции и кальциноза при спондилоартрозе и во всех окружающих тканевых структурах.

В нашей стране осуществляются определенные меры, направленные на адаптацию системы развития медицинской сферы к требованиям мирового стандарта, в том числе проведение целенаправленных исследований в патологических случаях. В связи с этим, в соответствии с 7 приоритетными направлениями стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, в поднятии медицинского обслуживания населения на новый уровень поставлены такие задачи, как «...повышение качества квалифицированных услуг населению в сфере первичной медико-санитарной помощи...»<sup>5</sup>. Исходя из этих задач целесообразно проведение научных исследований, направленных на совершенствование патоморфологической основы хирургического лечения дегенеративно-дистрофических заболеваний поясничного отдела позвоночника.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере: УП-60 от 28 января 2022 года Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-5590 от 7 декабря 2018 года «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан», ПП-3071 от 20 июня 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию специализированной медицинской помощи населению Республики Узбекистан на 2017 - 2021 годы», УП-6110 от 12 ноября 2020 года «О мерах по внедрению принципиально новых механизмов в деятельность учреждений первичной медико-санитарной помощи и дальнейшему повышению эффективности проводимых в системе здравоохранения реформ», ПП-4310 от 6 мая 2019 года «О мерах по дальнейшему развитию системы медицинского и фармацевтического образования и науки», ПП-4891 от 12 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по обеспечению общественного здоровья путем дальнейшего повышения эффективности работ по медицинской профилактике», ПП-5124 от 25 мая 2021 года «О дополнительных мерах по комплексному развитию сферы здравоохранения, ПП-283 от 16 июня 2022 года «О совершенствовании оказания экстренной медицинской помощи населению» и других мерах, связанных с этой деятельностью.

